

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

MUMTOZ FILOLOGIYA KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: Atoulloh Husayniy “Badoyi’u-s-sanoyi” asarida
badiiy san’atlar tasnifi**

Bajardi: Sharq filologiyasi va
falsafa fakulteti 4-kurs talabasi
Boboxo’jayev Sa’dullo

Ilmiy rahbar: Salima Rustamiy

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ishda balog‘at ilmi haqida ma’lumot beriladi, “Badoyi’u-s-sanoyi” asarining tarkibi tadqiq qilinib, lafziy san’atlar, ma’naviy san’atlar, lafziy- ma’naviy san’atlar, ma’noga ta’sir qiluvchi ayblar tarkiblari o‘rganiladi.

Toshkent–2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi:

“Sharq filologiyasi va falsafa”

fakulteti dekani

f.f.n. dots. J. Ziyomammedov

“ ____ ” _____ 20 yil

“Mumtoz folologiya” kafedrasi mudiri

f.f.d. prof. Q.P. Sodiqov.

“ ____ ” _____ 20 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	2
I BOB. BALOG’AT ILMI HAQIDA.....	8
1.1. “Balog’at” tushunchasi.....	8
1.2. Ilmi bayon va ma’oniy.....	11
1.3. Ilmi badi’.....	18
II atoulloh Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi” asaridagi san’atlar....	23
2.1. Lafziy san’atlar.....	23
2.2. Ma’naviy san’atlar.....	35
2.3. Lafziy ma’naviy san’atlar.....	47
2.4. Ma’noga ta’sir qiluvchi ayblar.....	53
 Xulosa.....	 57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligini. Mustaqillik qo'lga kiritilgan ilk davrlardan boshlab prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan yetishib kelayotgan yosh avlodga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgaradi.

I.A.Karimovning “Farzandlarimiz bizdan ko'ra, kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart”¹, degan shiorlari esa bu borada olib boriladigan ishlarning asosi bo'lib, xizmat qildi.

Keyingi yillarda yosh avlodni bilimli, dono qilib tarbiyalashda asosiy etibor ta'lim sohasiga qaratiladi.

Ayniqsa, 2010 yilning “Barkamol avlod yili” deb qilinishi yoshlarga bo'lgan e'tiborni yuqori darajaga olib chiqdi. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi haqida gapirar ekan, O'zbekiston Respublikasi prezident yoshlarni “Yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislar”² deb nomladi.

Bu esa hozirda ta'lim olayotgan va kelgusida turli xil sohalarda mutaxassislarga aylanishni maqsad qilayotgan biz kabi yoshlar qalbida ishonchni yanada ortib berishiga sabab bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish zarurki, “Mustaqillik” bizga boy berilgan qadriyatlarimizni qaytarib olish imkonini berdi. Ma'lumki, o'tmishda Markaziy Osiyo xududida juda ko'p ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan bo'lib, ularni kerakli darajada tushunib yetish uchun maxsus bilimga yega bo'lish kerak. Bu bilimlar sirasiga qadimgi turkiy, arab va fors tillarini o'zlashtirish, falsafa, mumtoz

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizning o'z qo'limiz bilan quramiz. T., 1999. B.95.

² I.A.Karimovning O'z.R. konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. “XXI Asr” gazetasi. 2009. 10 dekabr. -B.2.

adabiyotga oid ilmlarni egallash kiradi. Ayniqsa, adabiy asarlar badiiyat bilan yo'g'rilgani uchun ularni o'qib tushuna olishda badiiy san'atlarni bilish talab etiladi. Bu borada Atoulloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi'" asari qimmatli manba hisoblanadi. Bu asar ajam xalqlari orasida badiiy san'atlarga oid asar sifatida mashhurdir. Bu asar va uning muallifi haqida Alisher Navoiy o'zining "Majolisu-n-nafoysis" asarida "...ammo sanoyi'da kitobe tasnif qiliptur "Badoyi'-i Atoiy" g'a mavsumdur..."³ deb yozadi.

Balog'at ilmining rivojiga munosib hissa qo'shgan bu asar XV-XVI asrlarda yaratilgan. Muallif bu asarida balog'at san'atlarini "Miftohu-l-'ulum"⁴ da uchramagan o'ziga xos uslubda tasniflaydi.

"Badoyi'u-s-sanoyi'" asari bir necha tillarga tarjima qilingan bo'lsa-da, uning o'ziga xos xususiyatlari maxsus o'rganilmagan. Demak, ushbu tadqiqot mavzuining dolzarbligi Atoulloh Husayniy yozgan "Badoyi'u-s-sanoyi'" asari mundarijasining o'rganilishi bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Atoulloh Husayniy yozgan "Badoyi'u-s-sanoyi'" asari fors tilida yozilgan bo'lib, bir necha qo'lyozma nushasi bor. Bulardan biri Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonada saqlanadi⁵. Buxoro viloyati Abu Ali ibn Sino nomidagi axborot markazining elektron kutubxonasi sharq fondi katalogida 99/1 raqamli qo'lyozma haqida ma'lumot bor⁶.

Asar bir nechta tilga tarjima qilingan. Bular R. Musulmonqulovning 1974 yilda Dushanbeda ("Irfon" nashriyoti) nashr qilingan tojikcha va A. Rustamovning 1981 yil Toshkentda nashr qilingan o'zbekcha⁷ tarjimalaridir.

³ Alisher Navoiy. Majolisun nafoysis. Ilmiy-tanqidiy tekst. Tayyorlovchi S.G'aniyev. –T. 1961. – B. 141-142.

⁴ أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم. مطبعة مصطفى النبابي الحلبي و أولاده بمصر. 1937.

⁵ Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyotva san'at n-ti. 1981. –B. 4.

⁶ Buxoro.lib.uz

⁷ Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasi. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyotva san'at n-ti. 1981.

Asar va uning tarjimalari haqida ayrim maqolalar⁸ e'lon qilingan.

Lekin Atoulloh Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi” asarida badiiy san’atlar tasnifi xususida maxsus ilmiy-tadqiqot ishi olib borilmagan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Atoulloh Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi” asarida badiiy san’atlar tasnifini o’rganish mazkur tadqiqotning maqsadidir.

Shuningdek, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Balog‘at ilmi haqida ma’lumot yig‘ish;
- “Badoyi’u-s-sanoyi” asarining tarkibini tadqiq qilish;
- lafziy san’atlar tarkibini o’rganish;
- ma’naviy san’atlar tarkibini o’rganish;
- lafziy- ma’naviy san’atlar tarkibini o’rganish;
- ma’noga ta’sir qiluvchi ayblar tarkibini o’rganish.

Tadqiqot manbalari. Mazkur tadqiqot ishida asosiy manba sifatida A. Rustamovning 1981 yil Toshkentda nashr qilingan o‘zbekcha tarjimasi va qo‘shimcha manba sifatida Hifnu Nosifning “Qovo’idu-l-lug‘ati-l-’arabiyya va-l-balog‘a”⁹, Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a”¹⁰ va boshqa arab va o‘zbek adabiyotshunoslarining tadqiqotlaridan¹¹ foydalanildi.

⁸ Rustamiy S. “Badoyi’u-s-sanoyi” asarining balog‘atda tutgan o‘rni// Eron-afg‘on filologiyasining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T.: TDSH. 2009. –B. 80-85.

⁹ حفني ناصف. قواعد اللغة العربية و البلاغة. القاهرة.

¹⁰ Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog‘a. A.Hayitmetov nashrga tayyorlagan. –T.: Xazina.1996.

¹¹ To‘ychiev U. O‘zbek adabiyotida badiiylik. –T.: Yangi asr avlodi. 2011; Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asarida poetika. (Aruz, qofiya, badiiyat ilmi istilohlari tarixiga oid). T.: ToshDSH. 2001; Ishoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. –T.: Zarqaynar. 2006; Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at n-ti. 1979; Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj‘. –T.: Fan. 1978; Sharifov Z. Arab tili. Balog‘at fanidan ma’ruzalar matni. –T.: Shoakbar. 2002; Sharq mumtoz poetikasi. Birinchi kitob. Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi prof. Boltaboyev H. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006; Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. T.: Sharq, 1999; Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi? T.: Sharq, 2001; Sotiboldiyev S. R. Foniyy g‘azallarining badiiyati /Amir Xusrav Dehlaviy g‘azallariga yozgan tatabbu’lari asosida/.

Ilmiy ishning metodologik asoslari. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston tilshunoslari qo‘llagan tavsif, tahlil, qiyos uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Atoulloh Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi’” asarida badiiy san’atlar tasnifi tadqiq qilindi.

Ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, bu mavzuning yoritilishi orqali “Badoyi’u-s-sanoyi’” asarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi.

Tadqiqot natijalaridan mumtoz adabiy manbalar badiiyatini o‘rganishga oid maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malaka ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, yetti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. BALOG'AT ILMI HAQIDA

1.1. “Balog’at” tushunchasi. Lug’atda “balog’at” so‘zi "الْوُصُول", "النَّهَایَة" – yetish, oxiriga yetish ma’nolariga ega. Tilshunoslikda esa nutqdan ko‘zlangan yetuk darajadagi ma’noni to‘g’ri fasohat bilan yetkazishga aytiladi. Unda har bir gap munosib o‘rinda keladi va eshitgan ko‘ngillarga yaxshi ta’sir qiladi.

1. Nutq balog’ati. Nutqning fasohatli bo‘lishi bilan bir qatorda holat taqozosiga ham mos kelishi. Balog’atli kalom mazmunan aniq bo‘lgan, iborasi fasih bo‘lgan, aytilayotgan o‘rniga va tinglovchilarga munosib bo‘lgan kalomdir.

Balog’atning 2 chegarasi bor:

- a) Eng yuqori darajasi. Bu – so‘z bilan ojiz qoldirish darajasi.
- b) Eng pastki darajasi. Bu – agar undan ham pastroq darajaga tushilsa, balog’at sohiblari nazdida “hayvonlar tovushi” darajasiga tushib qolinadigan daraja.

Ushbu 2 chegara o‘rtasida ko‘pgina darajalar bo‘lib, ular so‘zga husn bag‘ishlaydigan jihatlarning ko‘lami va sifatiga bog‘liq.

Nutqdagi balog’at fasohat shartlariga rioya qilishi bilan bir vaqtda quyidagi jihatlarga ham e’tibor qaratadi.

(quyidagi gaplarni yana ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq)

- a) Hol. U “maqom” ham deyilib, gapiruvchiga o‘z iborasini muayyan bir suratda bayon qilishga undaydigan omil.
- b) “Al-muqtazho”. Uni “holga yarasha e’tibor” ham deyiladi. U nutq bayon qilinadigan maxsus surat degani. Masalan madh (maqtov), oshirib gapirishga chorlaydigan hol. Yoki eshituvchining zakovati. Bu qisqa suratda bayon

qilishga chorlovchi hol. Madh va zakovatning har ikkisi – hol. Oshirib va qisqa qilib gapirish – taqozo. Gapni uzun yoki qisqa soʻzlash vaziyatga muvofiq kelish deyiladi.

2. Notiq balogʻati. Har qanday maqsadni ifodalash boʻlmasin, oʻz fikrini balogʻatli nutq bilan bayon etish qobiliyati.

Har bir balogʻatli notiq fasohatli boʻladi, lekin fasohatlilarning hammasi ham balogʻatli emas.

Nutqdagi nomutanosiblik uni talaffuz qilish bilan, morfologik qiyosga zid kelishi sarfga qiyoslash bilan, sintaktik jihatdan nuqsonli yoki lafziy chigal boʻlishi nahv bilan, soʻzning “begonaligi” arab tilidan yaxshi xabardor boʻlish bilan hamda maʼnoviy chigallik esa bayon qilish orqali maʼlum boʻladi.

Balogʻat tolibi tilni, sarf va nahvni yaxshi bilishi hamda arab tilidan yaxshi xabardor boʻlishi kerak. Balogʻatning elementlariga quyidagilar kiradi: lafz, maʼno, shuningdek, soʻzlarni taʼkid, taʼsir va husn jihatdan kuchli joylashtirish, soʻng nutqning vaqti, oʻrni, mavzusiga koʻra, tinglovchilar holatiga, hukmronlik qilib turgan kayfiyat eʼtiboriga koʻra soʻzlarni va uslubni tanlashdagi sinchkovlik.

Balogʻat ilmini oʻrganish asnosida biz quyidagi foydalarga erishishimiz mumkin:

- Qurʼoni Karimni moʻjizaviy, aqllarni hayron qoldiradigan muqaddas kitob ekanligini anglash;
- Aytilgan gapdagi yaxshi bilan yomonni toʻla farqlay oladigan boʻlish;
- Maʼnoni ifodalab berishda xatarli (shubhaga soladigan) narsalardan uzoqda boʻlish;
- Aytilgan gapdagi soʻzlarning joylashuv tarkibini yaxshi oʻrganib olish;

Sof adabiy iboralar bilan soʻzlagan holda tinglovchi eʼtiborini jalb qilish va zeriktirib qoʻymaslik.

Balog‘at ilmining **rivojlanishi** haqida quyidagilarni keltirish mumkin. Balog‘at ilmi asl arablar fitratida tabiiy ravishda mavjud bo‘lgan, eng chiroyli jummlarni tanlab aytilmoqchi bo‘lgan fikr, mulohaza va o‘ylarni ifodalanadigan, adabiy zavq olinadigan so‘z san‘ati turi hisoblanadi. Bunga johiliyat she‘riyati va boshqa ajoyib arab uslublari yorqin misol bo‘la oladi. Vaqt o‘tishi bilan o‘zining lol qoldiradigan balog‘ati bilan Qur‘oni Karim nozil bo‘ldi. Natijada uning balog‘ati oldida tillar ojiz, uning fasohati qarshisida aqlar hayron bo‘lib qoldi. Keyinchalik hijriy beshinchi asrda balog‘atni o‘rganish juda keng tus oldi va u quyidagi bilimlarga bo‘lib o‘rganiladigan bo‘ldi:

- Bayon ilmi (علم البيان)
- Ma‘no ilmi (علم المعاني)
- Ilmul badi‘ (علم البديع)

Bayon ilmi – turli xil yo‘llar bilan bitta ma‘noni ifodalab berish;

Ma‘no ilmi – aytilgan so‘zning vaziyat, o‘ringa juda mos tushishi;

Ilmi badi‘ – aytilmoqchi bo‘lgan gapni bezash, go‘zal shaklga keltirish.

Xulosa qilib ushbularni aytish mumkin:

Balog‘atli nutq bu siyqasi chiqqan so‘zlar yoki bozor doirasidagi suhbat emas, balki, har tomonlama tanlangan kalomdir. U tuzilish jihatdan mukammal jummlar, qolipiga ko‘ra eng maqbul iboralar bo‘lib, chiroyli, tushunarli va kuchli ma‘nolarni o‘zida mujassam etadi. Balo‘gatli nutqda gapning eshituvchi holiga, kayfiyatiga va aql darajasiga ahamiyat beriladi. Kalom ustalari bu to‘g‘rida “ لكل مقام مقال ” - har maqomning kalomi bor, deyishgan. Tilshunos olimlar balog‘atni ta‘riflab, u haqda shunday deyishgan:

"الْبَلَاغَةُ مُطَابَقَةُ الْكَلَامِ لِمُقْتَضَيَاتِ الْحَالِ"

“ Balog‘at bu kalomning holat taqozosiga muvofiq kelmog‘idir.”

Demak, balog‘at Nutq balog‘ati va Notiq balog‘ati kabi turlarga bo‘linadi.

1.2. Ilmi bayon va ilmi ma'oniyy. Arab balog'atida bayonning tarkibigi tashbih, majoz, istiora, kinoya kiradi.

Bayon ilmida **tashbih, uning qismlari, turlari va badiiy ahamiyati** o'rganiladi. Unda tashbihning al-mushabbah, al-mushabbah bihi, ada:tu-t-tashbih, vajhu-t-tashbih kabi to'rtta rukni, at-tashbihi-l-mursal, at-tashbihi-l-mu'akkad, at-tashbihi-l-mujmal, at-tashbihi-l-mufasssal, at-tashbihi-l-balig' kabi qismlari, tashbihi-t-tamsil, at-tashbihi-d-dimniy, at-tashbihi-l-maqlub haqida ma'lumot beriladi.

Tashbeh so'zi lug'atda o'xshatish ma'nosini anglatadi. U bir narsani u bilan mushtarak sifatga ega bo'lgan boshqa narsaga o'xshatishdir. Bunda o'xshatilayotgan so'z "mushabbah", qiyoslanayotgan so'z "mushabbah bihi" deyilsa, o'xshatish ob'ektini "vajhu shibh" deyiladi. Shuningdek tashbehda ك va boshqa yuklamalar o'xshatish uchun vosita hisoblanadi. Ayrim adabiyotlarda bu "vositai tashbeh" deb ataladi. Masalan:

الْعِلْمُ كَالنُّورِ فِي الْهَدَايَةِ *ilm hidoyatda nurdekdir*

Ushbu misolda العلم so'zi mushabbah, النور mushabbah bihi, الهداية vajhu shibh (ya'ni hidoyat – to'g'ri yo'lda nurga o'xshatilgan), ك esa tashbeh yuklamasidir.

وَهِيَ تَجْرِي بِهِمْ فِي مَوْجٍ كَالْجِبَالِ¹²

◉Va u(kema) ularni tog'lardek to'lqinda olib ketayotganida◉

To'lqin va tog'lar o'rtasidagi o'xshashlik balandlik va kattalik sifatidadir.

Balog'atda **majoz** haqida shunday deyiladi:

Majoz so'zni ma'lum bir maqsadda o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, ko'chma ma'noda ishlatishdir. So'zning ko'chma ma'nosi doim matn ichida, u

bogʻlanib kelayotgan boshqa soʻz orqali anglashiladi. Soʻzning matndan tashqarida anglatgan maʼnosi esa soʻzning oʻz maʼnosi hisoblanadi. Masalan:

فَلَانٌ يَتَكَلَّمُ بِالذُّرِّ *Falonchi durlar bilan soʻzlaydi.*

Ushbu jumladagi “durlar” soʻzi koʻchma maʼnoda kelgan, buning isboti gap tarkibidagi “soʻzlaydi” lafzidir. Bundan “falonchi fasohatli soʻzlar bilan – durdonalar bilan soʻzlaydi” maʼnosi kelib chiqadi. Boshqacha aytsak, durlar soʻzini oʻz maʼnosida tushunishimizga “soʻzlaydi” lafzi moneʼlik qiladi. Bu oʻrinda soʻzning koʻchma maʼnoda tushunilishiga uning oʻz maʼnosi va matndan kelib chiqib anglashilayotgan maʼno (durdek chiroyli soʻzlar) orasidagi aloqadorlik asos boʻlmoqda. Demak, soʻzning koʻchma maʼnoda ishlatilishiga uning oʻz maʼnosi bilan koʻchma maʼnosi oʻrtasida biror bogʻliqlik, oʻxshashlik, aloqadorlik boʻlishi shart qilib qoʻyiladi.

Shu jihatdan qaralsa, istiora, kinoya (metonimiya), sinekdoxa, ramz kabilar majozning turli asoslarga tayanuvchi navlaridir.

يَجْعَلُونَ أَصَابِعَهُمْ فِي آذَانِهِمْ¹

“*panjalarini quloqlariga tiqib...*”

الأصابع (barmoqlar) soʻzi oʻz maʼnosida kelmagan, u الأنملة (barmoq uchi) maʼnosida kelgan. Bu ikki soʻz oʻrtasidagi aloqa biri ikkinchisining bir qismi ekanligidir. Yuqorida aytib oʻtilganidek, soʻzni oʻz maʼnosida tushunishga moneʼlik qiluvchi signal baʼzan gap tarkibidagi bir soʻz boʻlib kelishi, baʼzan esa matn mazmunidan anglashilgan holat boʻlib kelishi mumkin. Bu oyatdagi signal vazifasini holat ifoda etgan. Yaʼni butun barmoqning kirgizib boʻlmasligidan kelib chiqib, الأصابع soʻzini koʻchma maʼnoda ekanini bilib olamiz.

Agar majoz (birinchi misoldagidek) soʻzning haqiqiy va koʻchma maʼnosidagi oʻxshashlikka asoslangan boʻlsa, istiora deyiladi. Aks holda, ikkinchi misoldagi kabi majozi mursal deyiladi.

Majoz bu soʻzni maʼlum bir maqsadda oʻz maʼnosidan boshqa bir maʼnoda, koʻchma maʼnoda ishlatishdir. Soʻzning koʻchma maʼnosi doim matn ichida, u bogʻlanib kelayotgan boshqa soʻz orqali anglashiladi. Soʻzning matndan tashqarida anglatgan maʼnosi esa soʻzning oʻz maʼnosi hisoblanadi. Masalan:

فُلَانٌ يَتَكَلَّمُ بِالذُّرَرِ *Falonchi durlar bilan soʻzlaydi.*

Ushbu jumladagi “durlar” soʻzi koʻchma maʼnoda kelgan, buning isboti gap tarkibidagi “soʻzlaydi” lafzidir. Bundan “falonchi fasohatli soʻzlar bilan – durdonalar bilan soʻzlaydi” maʼnosi kelib chiqadi. Boshqacha aytsak, durlar soʻzini oʻz maʼnosida tushunishimizga “soʻzlaydi” lafzi moneʼlik qiladi. Bu oʻrinda soʻzning koʻchma maʼnoda tushunilishiga uning oʻz maʼnosi va matndan kelib chiqib anglashilayotgan maʼno (durdek chiroyli soʻzlar) orasidagi aloqadorlik asos boʻlmoqda. Demak, soʻzning koʻchma maʼnoda ishlatilishiga uning oʻz maʼnosi bilan koʻchma maʼnosi oʻrtasida biror bogʻliqlik, oʻxshashlik, aloqadorlik boʻlishi shart qilib qoʻyiladi.

Shu jihatdan qaralsa, istiora, kinoya (metonimiya), sinekdoxa, ramz kabilar majozning turli asoslarga tayanuvchi navlaridir.

يَجْعَلُونَ أَصَابِعَهُمْ فِي آذَانِهِمْ¹

“panjalarini quloqlariga tiqib...”

الأصابع (barmoqlar) soʻzi oʻz maʼnosida kelmagan, u الأنملة (barmoq uchi) maʼnosida kelgan. Bu ikki soʻz oʻrtasidagi aloqa biri ikkinchisining bir qismi ekanligidir. Yuqorida aytib oʻtilganidek, soʻzni oʻz maʼnosida tushunishga moneʼlik qiluvchi signal baʼzan gap tarkibidagi bir soʻz boʻlib kelishi, baʼzan esa matn mazmunidan anglashilgan holat boʻlib kelishi mumkin. Bu oyatdagi signal vazifasini holat ifoda etgan. Yaʼni butun barmoqning kirgizib boʻlmasligidan kelib chiqib, الأصابع soʻzini koʻchma maʼnoda ekanini bilib olamiz.

Agar majoz (birinchi misoldagidek) soʻzning haqiqiy va koʻchma maʼnosidagi oʻxshashlikka asoslangan boʻlsa, istiora deyiladi. Aks holda, ikkinchi misoldagi kabi majoz mursal deyiladi.

Bayon ilmida **istiora** haqida quyidagilarni bilish mumkin:

Istiora - bir soʻz shaklini “omonatga olib”, boshqa maʼnoda ishlatish. Istiorada soʻzni oʻz maʼnosidan boshqa maʼnoda ishlatish oʻxshashlik asosida amalga oshadi. Masalan,

الر كتابٌ أنزلناه إِلَيْكَ لِتُخْرِجَ النَّاسَ مِنَ الظُّلُمَاتِ إِلَى النُّورِ *

⊞ Alif. Lom. Ro. Bu kitobni senga odamlarni Robbilarining izni ila zulmatlardan nurga, aziz va maqtalgan zotning yoʻliga chiqarishing uchun nozil qildik. ⊞

Yaʼni zalolatdan hidoyatga. “Zulmat” va “nur” soʻzlari oʻzlarining haqiqiy maʼnolarida ishlatilmagan. Bu yerda zalolat va zulmat, hidoyat va nur soʻzlari oʻrtasida oʻxshashlik bor. Zulmatdagi odam toʻgʻri yoʻlni topa olmaydi, u nurga muhtoj. Zalolatdagilar esa oʻzlari sezmasalar ham toʻgʻri yoʻldan – hidoyatdan uzoqdadirlar, zotan “zalolat” ning maʼnosi ham “adashish” deganidir Istiora aslida “ikki tarafi” ning biri (mushabbah yoki mushabbah bihi), oʻxshashlik sohasi va vositasi hazf qilingan tashbehdir. Istiorada mushabbah “mustaor lahu” (istiora qilinayotgan, yaʼni, koʻchma maʼno uning uchun qoʻllanayotgan soʻz) deyiladi. Yuqoridagi misolda “zalolat” va “hidoyat” mustaor lahu boʻlsa, mustaor minhu esa “zulmat” va “nur” soʻzlarining maʼnolaridir. الظلمات va النور lafzlari esa “mustaor” deyiladi. Buning maʼnosi shuki, qorongʻulik va nur maʼnolaridan istiora qilinmoqda, ularning maʼnosi koʻchma maʼnoda qoʻllanyapti. Ularning aynan lafzlari esa mustaor deyiladi, yaʼni bu soʻzlarning lafzidan koʻchma maʼnoni ifodalash maqsadida foydalanilgan.

Ko`rinib turibdiki, bu yerda ajratish qiyin ko`rinayotgan o`xshashlik bor. Bu so`zning anglatadigan ma`nosi va uning shaklidir. So`zning ma`nosidan ko`chma ma`no olinyapti va buni so`zning shakli orqali bayon qilinyapti.

Bayonda kinoyaning mohiyati, uning ta`rifi, turlari va tasnifi ham o`rganiladi.

Kinoya majozning bir turi bo`lib, so`z yoki birikmani asl ma`nosidan boshqa, teskari ma`noda qo`llash demakdir. Kinoya o`xshatish ob`ektisiz ham namoyon bo`lishi mumkin. Ba`zan kinoyani ifodalash uchun ohangni o`zgartirish kifoya qiladi. Kinoya tilning barcha sathlarida (tovush, intonatsiya, so`z, jumla va hokazo) ifodalanishi mumkin. Kinoya nafaqat so`zni teskari ma`noda qo`llash, balki jumlaning kinoyaviy ma`no ifodalaydigan tartibda tuzish va shunga mos ohang yordamida ham yuzaga chiqarilishi mumkin.

Kinoyada iboraning o`z ma`nosidan qochib, boshqa zarur ma`no ko`zda tutiladi.

Kinoya 3 qismga bo`linadi:

1. Sifatni ifodalash uchun aytilayotgan kinoya, masalan Xansoning ushbu bayti:

طَوِيلُ النَّجَادِ رَفِيعُ الْعِمَادِ كَثِيرُ الرَّمَادِ إِذَا مَا شَتَا

Bu yerda طويل النجاد (qilichining qini uzun) dan طويل القامة ma`nosi ko`zda tutilgan.

(وَلَا تَجْعَلْ يَدَكَ مَغْلُولَةً إِلَىٰ عُنُقِكَ وَلَا تَبْسُطْهَا كُلَّ الْبَسْطِ فَتَقْعُدَ مَلُومًا مَّحْسُورًا)¹

❖ Qo`lingni bo`yningga bog`lab olma. Uni bir yo`la yozib ham yuborma. Yana malomat va hasratda o`tirib qolmagin. ❖

Bu oyatda ikkita kinoya bor. Birinchisi: وَلَا تَجْعَلْ يَدَكَ مَغْلُولَةً إِلَىٰ عُنُقِكَ, ya`ni bu yerda baxillik sifati nazarda tutilmoqda. Chunki qo`li bo`yniga bog`langan odam qo`lini pullariga cho`zmaydi. Ikkinchisi: وَلَا تَبْسُطْهَا كُلَّ الْبَسْطِ ya`ni bu yerdagi sifat

isrofdir. Chunki qo‘li judayam ochiq insonning puli qolmaydi. Quyidagi she‘r Bani Qays bin Sa‘laba shoirlaridan biriga tegishli:

شَعَثَ مَفَارِقُنَا، تَغْلِي مَرَاجِلُ نَاسٍ نَأْسُو بِأَمْوَالِنَا أَثَارُ أَيِّدِينَا

Sochimizning farqi to‘zigan, qozonimiz qaynagan,

Molimiz bilan qo‘limiz izlarini bog‘laymiz

شَعَثَ مَفَارِقُنَا bu gapdagi sifat jiddu jahd va qattiqlikdir. Chunki to‘zigan va chang bosgan soch egalari ziynatga hursand bo‘lmaydi, sochlarini tartibga keltirish ularni umuman qiziqitirmaydi.

Iyliyo Abu Mozi:

إِنَّ شَرَّ النَّفُوسِ فِي الْأَرْضِ نَفْسٌ تَتَمَنَّي قَتْلَ الرَّحِيلِ الرَّحِيلَا

وَتَرَى الشُّوْكَ فِي الْوُرُودِ وَ تَعْمِي أَنْ تَرَى فَوْقَهَا النِّدَى إِكْلِيلَا

Yerdagi eng yomon jon bu o‘limi kelmay o‘lgisi kelgan insondir,

Gulda tikonni ko‘rib, gultojday shudringni ko‘rmagan notavondir.

إِكْلِيلَا... فِي الْوُرُودِ bu gapdagi kinoya pessimizmdir. Chunki pessimist gulga qaraganda uning tikonini ko‘radi, lekin uni bezab turgan shudring tomchilarini ko‘rmaydi. Bu yerdagi “eng yomon” odam dunyoga yomon nazar bilan qaraydigan odamdir.

2. Nisbat berishni ifodalaydigan kinoya.

Abu Nuvvos aytadi:

فَمَا جَاذَهُ جُودٌ وَلَا حَلَّ دُونَهُ وَلَكِنْ يَسِيرُ الْجُودِ حَيْثُ يَسِيرُ

Saxovat undan o‘tmagay va na ortda qolmaydir,

U qayda yursa saxovat uning bilan yurgaydir.

Bu yerdagi “saxiylik” sifatini maqtalayotgan kishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri nisbat berilmayapti, balki unga bog‘liq bitta narsaga nisbat berilyapti, u ham bo‘lsa o‘sha

kishi sayr qiladigan joydir. U qayerda bo'lsa saxovat ham o'sha joyda yuradi. Mana shu she'r nisbatli kinoyaga misol bo'la oladi

الْمَجْدُ بَيْنَ ثَوْبَيْهِ، وَالْكَرَمُ تَحْتَ رِدَائِهِ

Ulug'vorlik uning ikki kiyimi orasida, karamlik esa uning to'ni ostida.

Balog'atning yana bir bo'limi "ma'nolar ilmi" (علم المعاني) deb ataladi. Ma'nolar ilmi borasidagi izlanishlar kalomning, u qay darajada mukammal tuzilgan bo'lishidan qat'iy nazar, tinglovchilar va gapirilayotgan o'rinning holatiga mos kelishi lozimligini, aks holda kalom mukammal bo'lmasligini e'tirof etadi. Holatning turlicha bo'lishi gapning shakli ham turlicha ko'rinishda o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan,

﴿وَ أَنَّا لَا نَدْرِي أَ شَرٌّ أُرِيدَ بِمَنْ فِي الْأَرْضِ أَمْ أَرَادَ بِهِمْ رَبُّهُمْ رَشَدًا﴾¹³

﴿Va, albatta, biz yer yuzidagilarga yomonlik iroda qilindimi yoki Robbilari ularga rushdni iroda qildimi-bilmasmiz.﴾

Ushbu oyatda "xohlamoq" fe'li 2 marta ishlatilgan. Birinchi holatda majhul nisbatda, ikkinchi holatda aniq nisbatda. Bunga sabab "الخير" – yaxshilikni Allohga nisbat berib, "الشر" – yomonlik nisbatini Unga bermaslikdir.

Ma'nolar ilmi 6 ta mavzuni o'rganadi:

1. Xabar va insho;
2. Zikr va hazf;
3. So'zni oldin yoki keyin qo'yish tartibi;
4. Ma'noni cheklash;
5. Jummalarni bog'lash yonma-yon yoki ajratib qo'yish;
6. Qisqa, ko'p, me'yorida gapirish;

¹³ Jin surasi 10 oyat

1.3. Ilmi badi'. Ilmul badi' - balogʻat tarkibiga kiruvchi uch ilmning biri hosoblanadi.

Ilmul badi'ga oid dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan boʻlib, IX-X asrlarga oid Nasr bin Hasanning “mahosin ul-kalom”, Ibn Muʻtazning “Kitob ul-badi'”, Qudama Ibn Jaʼfarning “Naqd ush-sheʼr” risolalari shular jumlasidandir. Shuningdek, fors tilida yaratilgan Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balogʻa”, Atoulloh Husayniyning “Badoyi us-sanoi” asarlari ilmu-l-badi'ning rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Shuningdek, turkiy tildagi ilmul badi'ga doir ilk asar sifatida Shayx Ahmad Xudoydodning XV asrda yaratilgan “Funun ul-balogʻa” risolasi eʼtirof etiladi.

Ilmul badi' aytiladigan gapni vaziyatga muvofiq ravishda bezash, goʻzal shaklga keltirish, nutqqa bezak beruvchi sanʼatlar, ularning oʻziga xos jihatlari, tasniflanishi, nutqning estetik funksiyasini oshirish, fikrni goʻzal va mazmunli ifodalash kabi masalalarni oʻrganuvchi ilm. Bu ilm yana “badiiy bezovchi vositalar” (المُحَسَّنَاتُ الْبَدِيعِيَّةُ) deb ham ataladi. Ilmul badi' baʼzan lafz, baʼzan esa maʼno bilan bogʻliq boʻladi. Shu xususdan ular maʼnoni bezovchi vositalar (المُحَسَّنَاتُ الْمَعْنَوِيَّةُ) va nutqni bezovchi vositalar (المُحَسَّنَاتُ اللَّفْظِيَّةُ) deb nomlanuvchi 2 turga boʻlinadi.

Dastlab maʼnoni bezovchi vositalar xususida. Bu vositalarning quyidagi turlari mavjud:

1. Ikki maʼnolilik (maʼnoni yashirish) – التَّوْرِيَّةُ

Ikki maʼnoli soʻz (yoki ibora) aytish natijasida asosiy maqsadni yashirish. Bunda asosiy maqsad ikkinchi maʼno ostiga yashiringan boʻladi. Ushbu ikki maʼno quyidagilar: a) yaqin maʼno – gapdan tushuniladigan birinchi maʼno; b) uzoq maʼno – gapning bir eshitganda anglashilmaydigan maʼnosi. Masalan:

يَا سَيِّدَا حَازَ لُطْفًا لَهُ الْبَرَاءَا عَبِيدَ

أَنْتَ الْحُسَيْنُ وَلَكِنْ جَفَاكَ فِينَا يَزِيدُ

Ey barcha xalq uning “quli” bo‘lgan lutf egasi,

Sen – Husayn, va le bizdan seni Yazid ayirdi.

Bu yerda يَزِيدُ ning yaqin ma’nosi Yazid ibn Muoviya, uzoq ma’nosi زَاد fe`lining hozirgi-kelasi zamon shaklidir. 2-misradan quyidagi ma`no ham kelib chiqadi: sen Husaynsan, lekin jafoning bizda ko`payib ketyapti. Aftidan shoir o`z podshohini madh etyapti, aslida esa vaziyat boshqacha. Bu uslubdan “bilsa hazil, bilmasa chin” qabilida foydalaniladi.

Sirojuddiyn Varroq debdi:

كَمْ قَطَعَ الْجُنُودُ مِنْ لِسَانٍ قَلَدَ مِنْ نَظْمِهِ النُّحُورَا

فَهَا أَنَا شَاعِرُ سِرَاجٍ فَأَقْطَعُ لِسَانِي أَرْدَكَ نُورَا

Qo‘shin nechtalab tilni uzib, undan munchoq qildi bo`yniga,

Mana men shoir Siroj, tilimni kes, nur ziyoda aylayin senga.

Bu yerdagi “ikki ma’nolilik” ikki o‘rinda kelgan: سِرَاج so‘zida ikkita ma’no bor: biri, darhol xayolga keladigan yaqin ma’no – “chiroq”, bunga yana baytni oxirida kelgan نُور so‘zi ham dalil bo‘ladi. Ikkinchi ma’no shoirning ismi, bu uzoq ma’no, lekin uni yaqin ma’no orqali yashirgan. لِسَان so`zining ham ikki ma’nosi bor, biri “til”, ikkinchisi “fonus piligi”. Demak bundan “piligimni kessang yorug`lik beruvchi fonusman” ma’nosi ostiga “meni o`ldirsang seni hajv qilishdan to`xtayman” ma’nosi yashiringan.

2. Antiteza (solishtirish, qarshilantirish) – الطَّبَاقُ

Antiteza ikkita qarama-qarshi ma’noni jamlash. Antiteza fikrni aniq-ravshan, ta`kidlab, emotsional to`yintirib ifodalashga xizmat qiladi. Misollar: ﴿

وَتَحْسَبُهُمْ أَيْقَاظًا وَهُمْ رُقُودٌ ﴿١٤﴾

¹⁴ Kahf surasi 18 oyat

Ular ni uyg‘oq deb o‘ylaysan, holbuki, uxlab yoturlar

وَلَكِنْ أَكْثَرُ النَّاسِ لَا يَعْلَمُونَ يَعْلَمُونَ ظَاهِرًا مِّنَ الْحَيَاةِ الدُّنْيَا¹⁵

Lekin odamlarning ko‘pi buni bilmaslar.

Ular bu dunyo hayotining zohirini bilurlar

Da’bar al-Jazaiy debdi:

لَا تَعْجَبِي يَا سَلَمُ مِنْ رَجُلٍ ضَحَكَ الْمَشِيبُ بِرَأْسِهِ فَبَكَیْ

Ey Salm, ajablanma boshinda qarilik kulib, o‘zi yig‘lagan kishidin.

3. Muqobala – الْمُقَابَلَةُ

Antitezadan muqobala kelib chiqadi. Muqobala ikki yoki undan ko‘p ma’no keltirish, so‘ng muqobil tartib bilan beriladi:

Alloh taolo shunday deydi:

فَلْيَضْحَكُوا قَلِيلًا وَلْيَبْكُوا كَثِيرًا¹⁶

oz kulib, ko‘p yig‘lasinlar.

Bu yerda ikkita ma’no o‘rtasida muqobala bor (ya’ni الضحك القليل – البكاء الكثير).

عَنْ عَائِشَةَ (رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا) قَالَ رَسُولُ اللَّهِ (صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ) "عَلَيْكَ بِالرَّفْقِ يَا عَائِشَةُ، فَإِنَّهُ مَا كَانَ فِي شَيْءٍ إِلَّا زَانَهُ، وَلَا نُزِعَ مِنْ شَيْءٍ إِلَّا شَانَهُ"

Oisha (r.a)dan rivoyat qilinadi, rasululloh (s.a.v) dedilar: “muloyimlikni lozim tut ey Oisha, albatta u qaysi narsada bo‘lsa uni bezaydi, qaysi narsada bo‘lmasa uni xunuk qiladi”.

Bu yerda “نزع – شانه” va “زانه- ما كان” o‘rtasida muqobala bor.

¹⁵ Rum surasi 6-7 oyatlar

¹⁶ Tavba surasi 82 oyat

Nobig‘a al-Ja‘diy shunday deydi:

فَتَنِي كَانَ فِيهِ مَا يَسِرُّ صَدِيقُهُ عَنِّي أَنَّ فِـيهِ مَا يَسُوءُ الْأَعْدِيَا

U yigitda bor edi xislat, do‘stini

shod aylab, ranjitar dushmanini...

Bu yerda يسر صديقه va يسوء الأعديا o‘rtasida muqobala qilingan.

4. Sherik keltirish – مُرَاعَةُ النَّظِيرِ

Sherik keltirish bu – bir narsa yoki hodisani unga munosib narsa-hodisa bilan bir joyda keltirishni anglatadi. Buni mutanosiblik (التَّنَاسُبُ) ham deyiladi. Masalan,

وَالطُّلُّ فِي سِلَاحِ الْغُصُونِ كُلُّوْ رَطْبٍ يُصَافِحُهُ النَّسِيمُ فَيَسْقُطُ
وَالطَّيْرُ يَقْرَأُ وَالْغَدِيرُ صَحِيفَةً وَالرَّيْحُ تَكْتُبُ وَالْغَمَامُ يَنْقُطُ

Shox tolasinda nam marjon kabi tomchi turur,

shabboda esib, ul “marjon” yerga tushur.

Qush o‘qur, ko‘l go‘yo sahifa erur,

shamol yozur, bulut anga nuqta qo‘yur.

Bu yerda يقرأ صحيفة va تكتب , ينقط o‘rtasida ushbu hodisa ro‘y bergan. Bu go‘zal uslubda yozilgan she‘rning muallifi noma‘lum bo‘lsada, unda tabiatdagi go‘zal manzara aks ettirilgan. Bargning uchidagi tomchiga shabada tegib, yerga tushishi, shuningdek, ko‘l ustidan shamol esib rasm chizishi va yomg‘ir tomchilab turishi hamda qushning ko‘l ustidan pastlab uchishi manzarasi mahorat bilan chizilgan.

Sherik keltirishdan yana “taraflar o‘xshashligi”dir. Bunda gap ibtidoaga munosib intiho topadi.

﴿لَا تُدْرِكُهُ الْأَبْصَارُ وَهُوَ يُدْرِكُ الْأَبْصَارَ وَهُوَ اللَّطِيفُ الْخَبِيرُ﴾¹⁷

Ko‘zlar Uni idrok eta olmas, U ko‘zlarni idrok etar. U latif va xabardor zotdir.

5. Istixdom – الاستِخْدَامُ . Bu – ikkita ma’noli bir so‘zni bir ma’nosi bilan ishlatib, unga qaytuvchi olmosh bilan shu so‘zning ikkinchi ma’nosini nazarda tutish. Yana bir ko‘rinishi esa ikkita qaytuvchi olmoshning biri boshqa so‘zga, ikkinchisi boshqa bir so‘zga qaytishi bo‘lib, bu ham gapga o‘ziga xos chiroy bag‘ishlaydi. Masalan:

﴿فَمَنْ شَهِدَ مِنْكُمُ الشَّهْرَ فَلْيَصُمْهُ﴾¹⁸

﴿Sizdan kim u oyda hozir bo‘lsa, ro‘zasini tutsin﴾

الشَّهْرُ so‘zi yangi Oy – hilol ma’nosida bo‘lib, qaytuvchi olmoshdan muddat ma’nosidagi oy iroda qilingan.

6. Jamlash – الْجَمْعُ . “Jamlash” bir necha so‘zni bitta hukmda ostida berishdir. Masalan:

إِنَّ الشَّبَابَ وَ الْفِرَاعَ وَ الْجِدَه مَفْسَدَةٌ لِلْمَرْءِ أَي مَفْسَدَهُ

Yoshligu bekorchilik va g‘ayrat barchasi kishiga buzuqlik keltirur.

Yana bir misol: ﴿الْمَالُ وَ الْبَنُونَ زِينَةُ الْحَيَاةِ الدُّنْيَا﴾¹⁹

Mol-mulk, bola-chaqa hayoti dunyo ziynatidir.

Demak arab balog’ati ilmi bayon, ma’oniy va badi’ ilmlaridan iborat hamda bayon ilmi –turli yo‘llar bilan bitta ma’noni ifodalab berish, ma’no ilmi –aytilgan so‘zning vaziyat, o‘ringa aynan mos tushishi, ilmi badi’ –aytilmoqchi bo‘lgan gapni bezash, go‘zal shaklga keltirish uchun qo‘llaniladi.

¹⁷ An’om surasi 103 oyat

¹⁸ Baqara surasi 185 oyat

¹⁹ Kahf surasi 46

II BOB. ATOULLOH HUSAYNIYNING “BADOE’ US SANOE’” ASARIDAGI SAN’ATLAR

2.1. Lafziy san’atlar. Lafziy san’atning asosi shuki, soʻzlarni ma’noga tobe qiladi. Umuman aytganda esa, nutq shunday bayon etiladiki, ma’noni tushinishga, uning latofatiga, tarkibi va sogʻlomligiga hech bir xalal bermaydi.

Lafziy san’atlar, son sanoqsizdir, lekin bu ishimizda ustozlar e’tibor berganlaridan ba’zilarini keltiramiz.

Jamiy ajam shuarosining odati shuki, badiy san’atlar haqida soʻz ketganda eng birinchi qilib tarsi’ni keltiradilar chunki, -bu yetuk san’at matla’dan boshqasida joy topmagay,-deydi alloma oʻz asarida. Bu bilan alloma Husayniy matla’ uchun loyiq boʻgani tarsi’ demoqchi boʻlganlar.

Tarsi’. Kopchilik arab fusaholarining nazdida, ikki boʻlak soʻzning, xoh u nasrda boʻlsin, yoki nazmda har boʻlagidagi har bir soʻz ikkinchi boʻlagidagi unga muqobil soʻz bilan vaznda teng boʻladi va oxirgi harfga muvofiq yoki yaqin boʻladi. Ajam shuarosi nazdida soʻzlarning oxiri xarfta²⁰ muvofiq kelishi shart.

Istelohda ikki jumla yoki misradagi soʻzlarning vaznda, qofiyada barobar boʻlib kelishini bildiradi²¹

Zi ro’yash munfa’il gulho, fitoda bo’ston darham,
Ba ko’yash muttasil dilho kushoda, do’ston hurram.

*Yuzidan gullar uyatlig’, bo’ston tushmish parishon holga ko’yiga muttasil
gullar ochilmish, do’stlar hurram.*

²⁰ Raviy qofiyaning asosiy elementi Alibek Rustamov . qofiya nima? “fan” nashriyoti. Toshkent, 1976.

²¹ Yoqubjon Ishoqov “Soʻz san’ati soʻzligi” zarqalam nashriyoti. Toshkent.B. 80

Arab fusaholaridan bir qanchasi tarsi'ni alohida san'at emas, balki uni saj turlaridan deb hisoblaydilar, baytdagi har ikki bo'lakning hamma so'zlari vaznda oxirgi raviyga munosib kelishini shart qilmaydilar, balki har ikki bo'lak so'ngidagi oxirgi so'z vazni, keyingi xarfta muvofiq bo'lsa hamda qolgan so'zlarning ham ko'pchiligi mos tushsa, bu holat ham ularning nazdida tarsi'dek bo'ladi.

Tajnisli tarsi'. Tarsi' bilan boshqa san'atlar qo'shilsa tarsi'ning go'zalligi yanada ortadi. San'atlar ichida shoirlar tajnisni tarsi' bilan qoshganlar bor

Ba mayxona husham har dam ba los,
Ba koshona kasham muhkam balos.

Bu yerda tajnis qofiyadadir: birinchi los-bir loy (may quyqasi) ikkinchi los-bir loe (eshik ochganda yig'ib ko'tarib, yopganda tushirib qo'yiladigan)

Mayxonada har vaqt may quyqasiga hursandman, koshonamda mahkam qilib eshikni tortib qo'yay,

Tajnis. Lugatda biror narsa bilan o'xshash bo'lmoqdir. Istilohda esa ikki yoki undan ortiq so'zning nav'u turlari bayon etilgan ko'rinishlardan birida bir-biriga o'xshamoqdir.

Badi' ilmida talaffuzda o'xshash bo'lib, ma'no jihatdan farq qiladigan ikki jinisdosh so'zni tashkil qiladi, ya'ni bu tushinchaga "paronim va omonimlarga asoslangan badiiy tasvir vositalariga mujassamlashgan"²²

Bazi arab fusaholari bir so'z turkumiga mansub bo'lgan ikki shakldoshni, ya'ni ikki ism, yoki ikki fe'l, yo ikki ko'makchidan iborat tajnisi tomni ikki shakldoshning **mumosalati**²³ va ularning turdoshligi jihatdan tajnisi mumosil deb atabдилar. Bir turkumga mansub bo'lmagan, ya'ni ismi fe'l yoki ismi ko'makchi turdosh so'zlardan istefo qilgani uchun **tajnisi mustavfiy** deyдилar .

²² Ziyoviddonova.M. abu Abdulloh al-Xorazmiyning "mafotih al-ulum" asarida poetika. T. 2001.b.52

²³ Bir-biriga o'xshash "annaim" lug'ati

Tajnisi noqis. Uni tajnisi muxtalif va tajnisi muharraf ham deb ataydilar. U soʻzlarning harflar soni, turi va tartibida muvofiq boʻlib, harakatu sukunat, tashdidu taxfif, maddu qasrdan hosil boʻladigan shakldan iboratdir:

Eyki, sofiy soxta aysh-i maro az durd-i dard,
Dur bor az gird-i tu osib-i davr-i tezgard.

Tajnisi noqis: durd –dard; dur –davr. Bularda harflar tartibi bir xil, lekin harakati har xil

*ey dardu-durd(may quyqasi)dan mening ayshimni sofiy(mayning tinig‘I)
qilgan tez aylanuvchidavr ziyoni sening tegrugdan uzoq bo‘lsin.*

Hanuz azlabash bo‘y-i shir omadiy,
Ki sher az nahibash harosan shudiy.

Tajnisi noqis: sher-shir

hali labidan ona suti ketmagan edi, lekin haybatidan sher hurkar edi.

Tajnisi muzayyal. Bu tajnisi zoyiliy ham deb nomlanadi. Bunda harflar son jihatdan har xil boʻladi. Har ikkisida mavjud harflar turida bir-biriga muvofiq boʻladi. Soʻzlardagi tartib shakli shunday boʻladiki, agar harflar sonida ixtilof boʻlmasa, ularning orasida tajnisi tom hosil boʻladi. Bu ixtilof koʻpchilik fusaho nazdida, ikki shakldoshning yo oʻrtasida, yo boshida, yoki oxirida bir harfning oshiqchaligidadir. Birinchi turi shundayki:

Manam az javr-i falak gashta chunin zoru nazor,
Shuda devonavu shaydo az gʻam-i yoru diyor.

Tajnisi muzayyal: zor-nizor; yor –diyor bunday hollardagi I ning lafsdoshlik nuqtai nazaridan ham ahamiyoti yoq.²⁴

Falak jabridan bunday zori nizor (holdan toygan) bo‘lgan, yori diyor g`amidan devonayu shaydo bo‘lgan menman

Ikkinchi shundayki:

Yo rab, nabud avval agar xo‘b kor-i man,
Oxir purast zi ashk-i nadomat kanor-i man.

Tajnisi muzayyal: kor-kanor. Ikkinchisining o‘rtasidan bir harf olib tashlansa, -an yo‘qolib kor qoladi.

Ey Xudo agar ishim boshda yaxshi bo‘lmagan bo‘lsa, oxirda atrofim o‘kinch yoshlari bilan to‘ldi.

Uchinchi turi shundayki:

Va‘da-yi boda kardaiy, zinhor,
Vaqt-i gul merasad biyovu biyor!

Tajnisi muzayyal: biyo –biyor .

Boda va‘da qilgansan, zinhor kelu keltir, chunki gul vaqti kelyapti.

“**Hadayiqu sihr**”da faqat uchinchi turdagi tajnisni tajnisi muzayyal va tajnisi zoyid deb olinibdi²⁵. “**tibyonil bayon**”da tajnisu zoyid har uchala turni o‘z ichiga olib tajnisu muzayyalni uchinchi turga xoslaydi.(41)

Majuy sabru, dilu, dinu, aqlu hush az man,

²⁴24 Alibek Rustamov, “Navoiyning badiiy mahorati”, gofur g‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti , Toshkent, 1979, 30-33 betlar

²⁵ Bu asar lafziy san‘atlarga bag‘ishlangan muallif Rashididdin Vatvot (XI)

Ki, tor-i zulf-i tu toroj kard xona-yi tan.

Tajnis: tor- toroj. Bu baytda uyushturish san'ati ham bor, birinchi misrada to'ldiruvchilar uyushtirilgan.

Mendan sabr, dil, din, aqlu hush izlama,i chunki zulfingning tori tan uyini toroj qildi.

Tajnisu muzori'. Uni tajnisu mutarraf ham deb ataydilar u lafsalar harflarning sonida, tartibida va shaklida muvofiq bo'lib, bir yo ikki harfda farq qiladi. Lekin farq qilgan harflar bir-biriga yaqin maxrajda bo'ladi. Xulosa qilib aytganda shakldosh so'zlar shundayki, agar bir yoki ikki harfdagi tur jihatidagi farq bo'lmasa.ular orasida tajnisi tom hosil boladi. Farq qiluvchi harf boshida, ham o'rtasida yoki oxirida kelishi mumkin.(42)

Zuhdu darveshiy k-azin, ey dil, ki anjom-i kor,
Hast mayl-i husn vayli huznu ganji moli –mor.

Tajnis: mayl –vayl (ohu nola); husn –huzn (qayg'u) ; mor –mol

Zuhdi darveshlikka sabab uldirkim, oqibatta husng'a maylqayg'u nolasig'a mol ilonga aylandi.

Tajnisi lohiq. Bu tajnis-i muzori'ga o'xshaydi. Farqi bunda maxraj harflar bir- biriga uzoq bo'ladi. Bu yerda ixtilofli harf boshida ham o'rtasida ham yoki bo'lmasa oxirida kelishi mumkin.

Har kiro shud taxti baxt-i o' nigun va davr-i dahr,
Go': biyafkan tig'-i tez az kafki, hast on vaqt-i sabr.

Tajnis-i lohiq: taxt baxt; davr dahr; tig' tez

*Zamona davrasidan har kimning taxtu baxti og‘darilsa, unga degil:
qo‘lingdan o‘tkir tig‘ni qo‘y, hozir sabr vaqtidir*

Mavlona Qutbiddin bu turning lafziy tajnisga kirishini aniq aytadi.(44) Ajam shuarosi tajnisi lohiqni lafziy tajnisning alohida turi deb hisoblamaydilar, uning ko‘p turini hisobga olmay, ikki shakldoshning faqat oxirgi harfida ixtilof bo‘gan bir turni, aytib o‘tilgandek, tajnisi mutarraf deb e‘tibor qilibdilar. Uni tajnisi lohiq deb atalishiga sabab shuki, agar ikki shakldosh ba‘zi harflarda farq qilsa, farq qiluvchi harflar maxraji yaqinligidandir. Agar maxrajda yaqinlik bo‘lmasa, uning bo‘limidir va shakldoshlik jihatdan unga lohiqdir, ya‘ni bog‘langandir.

Arabiyat ahli ba‘zilar tajnis-i muzori’ va tajnis-i lohiqni, ularni bu shakli ko‘rinishida tajnis-i holidan kelganligi uchun, tajnis-i tasrif deb ataydilar. Buning ma‘nosi qaytarish tajnisi ma‘nolarini bildiradi.(45)

Tajnis-i aks. Ba‘zilar unga “tajnisi qalb” deb ot qo‘yubdilar. “miftoh” sohibi, jami arabiyat shoirlari va ajam shoirlari buni tajnis turi deb hisoblamaydilar. Uni qalb san‘ati deb biladilar. Ammo mavlona Qutbuddin va “izoh” sohibi uni tajnis turlari deb hisoblaydilar. Bu shundan iboratki, so‘zlar harflarning soni, turi va shaklida muvofiq bo‘ladi, ammo bu harflar tartibida ikki xil ixtilofda bo‘ladi. Birinchisi: hamma harflar teskari, ikkinchisi: bazi harflar teskari bo‘ladi.

Roz-i mann-i zor napursad digar,
Basta magar boz ba qatlam kamar.

Tajnisi aks: roz zor; magar kamar (aynan aks emas . g bilan k bir xil yoziladi)
*Sirrimni, zinhor boshqa so‘ramasin, yana qatlam uchun, bel bog‘laganga
o‘xshaydi.*

Husayniyning fikricha, buni, garchi bazi jihatdan qalbga yaqin bo‘lsa ham, tajnisga kiritmoqlik munosib emas. Tajnis bobida ikki shakldoshdagi ixtilofni etiborga olib tartibdagi ixtilofni nazarga olish asossiz imtiyozdir. Ammo istiloh ahli bilan bahs qilib bo‘lmaydi.(45)

Tajnis-i muzdavaj. Uni tajnis-i mukarrar, tajnis-i muraddad va tajnis-i mujannab deb ham nomlaydilar. Saj' yoki bayt oxirida ikki shakldoshning birini boshqasi bilan qo'shadilar va u tajnis-i tom bo'lishi mumkin.(45)

Vaqt-i gulgasht mul biyor ba yor,
Ha'ra zan mast chun hazor hazor.

Tajnis-i muzdavaj: biyor (keltir) ba yor (yorga); hazor (bulbul) hazor (ming)
Gul sayrida yorga gul keltir, mastona bulbuldek ming xil nola qil!

“Izoh” sohibining nazdida ikki shakldosh bayt yoki sajning oxirida bo'lmog'i lozim.(46)

Rashididdiin Vatvot keltirgan misoldan ma'lum bo'ladiki, agar ikki shakldosh orasida kichik bir fosila bo'lsa, to'g'ridir.(46)

Uftod²⁶ maro bo dil-i makkor-i tu kor,
Vafkan darin dilam du gulnor-i tu nor.
Man monda hijil ba pesh-i gulzor tu zor,
Bo in hama dar du chashm-i xunxor-i tu xor

Tajnis-i muzdavaj: makkor kor; gulnor nor; xunxor xor. Bularni bir biridan bir so'z tu ajratib turibdi

Sening makkor dilingga mening ishim tushdi, ko'nglimga ikki gulnoring (yanoqing) o't soldi. Men gulzoring oldida hijuli zor va shu bilan birga ikki qonxo'r ko'zingga xor bo'lib qoldim.

Takrir va tardid. Lug'atda qaytarish demakdir izdivoj esa juftlashishdir²⁷.

Tajnis-i murakkab. Arab fusahosi nazdida bu ikki shakldoshning biri murakkab bo'ladi va biri mufrad bu nima degani? Murakkab, ya'ni birikmadan

²⁶ Hozirgi tojik tilida aftod

²⁷ Muzdavaj izdivojning sifotdoshi degan ma'noni anglatadi.

iborat, mufrad esa bitta yolg'iz tarkib topgan degan ma'noni anglatadi.(47) Ajam shuarosi nazdida esa, yo ikki shakldoshning biri, yoki har ikkisi murakkab bo'ladi.(47) Birinchi turi:

Ey dil chu qimorxona biniy dar boz.

Varneh qadam-i, zuhdu riyoro darboz

Tajnis-i murakkab: dar boz(eshik ochiq); darboz (o'yna)

Ey ko'ngil agar qumorxona eshigini ochiq ko'rsang, zuhdu riyo qadamini to'xtatib, o'yinga kirish.

Ikkinchisi:

Onroki, zaru siym naboshad dar dast,

Har dam zi zamona bar dilash sad dardast.

Tajnis-i murakkab: dar dast (qo'lda); dardast (darddur)

Qo'lida oltinu kumushi bo'lmagan kishining, ko'ngliga doim zamondan yuz xil dard yetishadi.

Agar ikki shakldosh baytdagidek yozuvda bir-biriga monand bo'lsa mutashabih derlar agar turlicha bo'lsa mafruq derlar²⁸.

Ey, gashta zi sharm rang-i ro'y-i tu gul ob,

Chun ob shuda ba pesh so'-yi tu gulob.

Tajnis-i murakkab-i mafruq: gul ob (gul suv); gulob. Birinchisida gul lom harfi bilan tugab, ob so'zining o si maddli alif bilan yoziladi. Ikkinchida bularning o'rnida lomalif ligatura (murakkab harf)i yoziladi.

²⁸ Bu so'zdan oldin qizil siyoh bilan mutashabih mafruq deb yozilgan. Bu tekst ichiga qistirilgan sarlavhadir.

Ey, uyatdan yuzingning rangi gulu suv bo'libdi, sening savlating oldida gulob suv bo'lgani kabi.

Arab fusahosi mutashabih va mafruq tajnisni tajnisi tomga xos qilibdi, ajamlar esa munday qilmabdi.(47)

Nashud hech ohsil maro zin diyor,

Ba juz mehnatu hasratu dard-i yor.

Tajnis: diyor di yor.

Bu diyordan menga mehnat, hasrat va yor dardidan o'zga hech narsa nasib bo'lmadi.

G'ayri lafziy tajnis. Uch turdir birinchisi: tajnis-i xattiy uni muzora'a, mushokala va tashif deydilar. Bu talaffuzda turlicha so'zlarning yozuvda bir-biriga o'xshash bo'lishidir.

Qaviy gasht durus ba diydor-i shoh,

Chunon siyohu²⁹ chunon sipoh.

Tajnis: siyoh sipoh. P bilan y arab yozuvida faqat nuqtada farq qiladi.

Shoh ko'rinishi bilan talofat kuchaydi, shunday qorayu shunday sipoh.

Ikkinchisi **tajnis-i mushavvash** so'zlar orasida o'xshashlik shu darajada bo'ladiki, uni tajnisning ikki turiga moyilligi bo'ladi, haqiqatda esa hech biriga oid bo'lmaydi.

Girih zad bar abru, zi jon shud farog'at,

²⁹ Qo'lyozmada siyoh sozidan keyin ikkita vov bor. Bu misrada nuqson mavjud vaznga qaraganda siyoh va sipoh so'zlari oldida yana so'z bo'lishi kerak.

Ki boshad baroat tariq-i balo‘gat³⁰

Qoshini chimirgach jondan farog‘at ketdi, baroat esa balog‘at yo‘lidir.

Uchinchisi: **tajnis-i bilishora** dur. So‘zlar orasidagi tajnis ishora bilan hosil bo‘ladi, ikki shakldoshning biri zikr etiladi, ikkinchisiga ishora qilinadi:

Guftam: nigor-i man, chi kun-i xuni oshiqon?

Xandidu guft: onki, maro guftiy in zamon.

Dedim: mening nigorim, oshiqnlarning qonini nima qilasan?kulib dedi: hozir aytganingni qilaman . nigor (rang) nazarda tutilgan

Ikki shakldoshning biri nigordir va mahbuba ma‘nosi bilan kelgan. **Maro guftiy in zamon** (hozir menga aytding) lafzida ikkinchi shakldoshga ishora bordir va u nigordir qo‘lga qo‘yarlar.

Ajam ahli buni ham hisobga olmaydilar. Arabiyat ahlidan esa ba‘zilari tajnisga kiritmabdilar.(50)

Raddul ajz minas sadr. Bu san‘at nasrda arab va ajam fusahosi nazdida bir so‘zni misra boshida keltiradi va huddi o‘sha so‘zni misra oxirida keltirib, bitta ma’noda qo‘llaydi. orasida esa tajnis, ishtiyoq va shibhi ishtiyoq ikki so‘zning birini jumla boshida va ikkinchisini oxirida keltiradi.

“Miftoh”, “Izoh” va “Tibyon”da bundan maqsad tajnis-i tommy, yoki tajnis emasmi aniq emas. Ammo alloma Rashididdin Vatvot bayoniyning borishidan malum bo‘ladiki, murod tajnisi tommdir.(51)

Binobarin bu san‘atning , to‘rt so‘z o‘rniyu ikki o‘rin , yani sadr va hashv turi etibori bilan sakkiz xili bordir.

³⁰ Baytda balog‘at va baroat ning nazarga olingan birinchi ma‘nosi fidokorlik va yetuklikdir. Ammo bular mahorat va chechanlikni ham bildiradi bu iyhom san‘atidir.

Avvalgi turi: birinchi misra boshida kelgan soʻzini yana oʻsha maʼnoda ajzda keltiriladi:

Qaror dar dil-i man chun buvadk-i, nest turo
Tu chashm-i xesh zi shoʻxiy ba hech goʻsha qaror.

Mening koʻnglimda nechuk qaror boʻlsin, chunki senda oʻz koʻzingdek shoʻxlikdan hech bir burchakda qaroring yoʻq.

Yaʼni koʻngil qarorsiz kishida boʻlgandan keyin uning bilan barobar beqarorlik (sabrsiz) qiladi .

Ikkinchi tur: bir soʻzni birinchi misraning oʻrtasida keltiradi va yana osha maʼnoda soʻzni oxirida keltiradi:

Chi son ravam ba hisori amonki, soct zamon,
Zi sangi tafriqa dard girdi man hazor hisor.

Amon qoʻrgʻoniga qanday qilib boray, agar zamona mening atrofimga judolik toshlaridan minglab qoʻrgʻon solgan boʻlsa.

Uchinchi tur: oralarida tajnisi tomm mavjud boʻlgan ikki soʻzning birini boshiga ikkinchisini esa oxirida keltiradi:

Manol az sitam-i faqr, z-onki dar hama hol,
Behast ganj-i qanoat zi ganj-i molu manol.

Birinchi manol nolima degan maʼnoda chunki har doim qanoat xazinasini moli mulk hazinasidan yaxshiroqdir.

Kambagʻallik sitamidan nolima, chunki hamma vaqt qanoat hazinasini mol – mulk hazinasidan yaxshiroqdir.

To'rtinchi tur: shakldosh soz birinchi misra o'rtasida keyingisi shu so'zning o'zi ikkinchi misraning oxirida keladi:

Kushoda boz-i ajal bolu karda iste'jol,
Bo qasd-i jonu chunun mo nishasta forig' bol.

Birinchi bol –qanoat ma'nosida , ikkinchisi xotir ma'nosida.

Ajal lochini qanotini yozib, shiddat bilan jonga qasd qilmoqda, biz esa xotirjam o'tiribmiz.

Beshinchi tur. Oralarida ishtiyoq bo'lgan ikki shakldoshning biri boshida ikkinchisini oxirida keltiradi.

Tulu'i-i subh-i saodat kujo buvad ummid,
Shab-i maroki, buvad hamchu man siyah toli'.

O'zimdek tolei qora bo'lgan tunimdan saodat tongini otishini qanday qilib umid qilish mumkin.

Oltinchi tur: Mazkur ikki so'zning biri o'rtasida kelib ikkinchisi oxirida keladi, bunda so'zlar o'zaro shakldosh bo'lmasligi mumkin, lekin so'zlarni o'zagi bir bo'ladi.

Ba ohu nola-yi man , mutribo, bisoz imshab,
Ki, nest be ruh-i jonon maro havo-yi tarab.

Ey, mutrib bu kecha mening ohu nolam bilan kelish, chunki jononning diydorisiz bo'ladigan tarabga mening toqatim yoq.

Yettinchi tur : oralarida shibh-i ishtiyoq bo'lgan ikki so'zning biri boshda ikkinchisi oxirida keladi:

Mo'ya kunon dar g'am-i on mohro'y,

Joma siyah karda zoram chu mo'y.

Ul oy yuzlining hajrida nola qila –qila kiyimni qora qilib qilday nochor holga tushdim.

Muya (nola) bilan mo'y(soch tuk qil) so'zlarining o'zagi bir emas.

Sakkizinchi tur: mazkur lafslarning biri birinchi misra o'rtasida, ikkinchisi misra oxirida keladi.

Ba pesh-i xalq makun nola va harobiy-i hol,
Dilo, chu nest zi abno-yi dahr umid-i navol!

Ey ko'ngil , xalq oldida holingni harobligini nolima, chunki zamona ahlidan ezgulik umid qilib bo'lmaydi.

“Hadayiqus sihr”da bayon etilishicha bu san'atni fors she'rida mutobiq va muqaddar ham derlar.

Demak, lafziy san'atlarda so'zlardagi tovushdoshlik muhim ahamiyatga ega. Atoulloh Husayniyning tasnifida bu san'atlar Sakkokiyning tasnifiga mos keladi.

2.2. Ma'naviy san'atlar. Bu ikki xil bo'ladi birinchisi arab fusahosi va ajam shuarosi nazdida san'atlarga kiradi, ikkinchi turi ajam shuarosi nazdida san'atlardan hisoblanadi lekin arab fusahosi hammasi bir yoqadan bosh chiqarib uni nutqning zotiy go'zalliklaridan deb biladilar. Uning bayoni ilmi bade'dadir, holbuki tamhidda zikr etilganidek u oriziy go'zalliklardandir. (122)

Birinchi tur: tavjih uni muhtamalu-z-ziddayn ham derlar u so'zni ikki fikriy ko'rinishda beradi.

Din chun mehrob-i abro-yi buton-i ishvasoz,
Joyi on dorad ki shayx-i shahr biguzorad namoz.

Ishvagar budlarning qosh mehrobini ko'rgan chog'da shaharning shayxi namozni adoqilsa.(yoki tashasa)joyi bor.

Bu baytda tavjihning asosi biguz zorad namozdadir. Buni baytda namozni ado etadi, ya'ni o'qiydi yoki namozni qo'yadi, yani o'qimaydi deb ham tushinish mumkin.

Rashididdin Vatvot : muhtamalu-z-ziddayn, bu san'atni zulvajhayn ham derlar, u shundayki shoir bir bayt aytadi unda ikki ma'no ham madh ham hajv bo'ladi.

Tavjih lug'atda yuz o'girmoqdir. Bu san'atning o'z ichiga olgan so'zga istagan ma'no berish mumkinligini bildiradi.

Iyhom uni **tavriya** ham derlar Rashididdin Vatvot uni **tahyil** ham degan. Bir so'z keltirilib undan ikki mano anglashiladi biri yaqin ikkinchisi uzoq ma'no bo'ladi. Maqsaq uzoq ma'no tushinilib uning yashirin ma'nodoshiga, xoh osha so'z bo'lsin, xoh undan tashqaririda baribir unga tayaniladi.

Ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lgan har qanday so'z iyhom deyiladi. Iyhom shubhaga tushishdir, ya'ni bir ma'no topgandan so'ng, yana boshqa ma'nosi ham bormikan deb gumon qiladi³¹

Xush ondam, ki bor yor giram kanor,
Ki, gardad xalos az g'am in jon-i zor.

Ul dam hushdurkim yor bilan quchoq olishib (uzoq ma'nosi yor bilan chetga ketib)bu zor jonim g'amdin halos bo'sa.

Tavriya :

So'yi naxle ki, az mehr lash xazinam,
Ravam sad boru yak borash nabinam.

Takidul madh bimo yashbahuz zam. "Izoh" sohibi buni ikki xil ta'riflaydi. Avval bir nimadan hajvni bekor qilib, undan so'ng u hajviy sifatdan madhiy sifatni

³¹ Y Is'hoqov so'z san'ati so'zligi

Bu madhiy sifat hajviy sifatga kirishi mumkin deb faraz qilingan taqdirda istisno qilurlar.

Nadorad hech aybe nargis-i yor
Juzin kaz noz bemorast bisyor.

Yor nargisi (ko‘zi)ning hech aybi yoq, agar nozdan ko‘p bemorligini hisobga olinmasa.

O‘ta suzik ko‘zga bemor deyiladi.

Bu istisnoning ma‘nosi shuki agar nozdan mahbub nargisining ko‘p bemorligi ayb bo‘lsa, yorda ayb bo‘lmasa ayb yo‘q.

Takidu zam bimo yashbahul madh. “izoh” sohiblari bu ham ikki nav‘dir deyishadi. Birinchisi zammiy sifatning bir nimadan tashkil topgan madhiy sifatdan bir nimani manfiy sifatga kirmagan qismidir:

Darin zamona majo‘ az kase tariq-i vafo
Ki nest ahl-i zamonro hunar bag‘ayr-i jafo

Bu zamonda hech bir kishidan vafo yo‘lini so‘rama, chunki zamona ahlining jafodan boshqa hunari yo‘q.

Ikkinchi turi shuki: bir nimaning zammiy sifati iqrор qilinur va undan yana bir zammiy sifat istisno qilinadi:

Voizi shahr agar chand badast atvorash,
In qadr hast, ki dil tiyra kunad kuftorash .

Shahar voizining agarchi fe‘li atvori yomondir, ul shu qadardirki so‘zi yurakni xira qiladi.

Istibto‘ ajam shuarosi madhi muvajjah deydilar. Bu bir nimani madh qila turib yana boshqa narsani madhini keltirib chiqaradi.

Kujo vasf-i joh-i janobiy tavonam,
Ki dar joh az ajdod-i xud ham guzashta.

Janobimning martabasini nechuk vasf qila olaman. Chunki u johda bobolaridan ham o'tib ketgandi.

Maqtaluvchi u darajada ulug'lanibdiki bu ulug'lanish nasabining madhini keltirib chiqaradi, chunki uning bobolarining ulug'ligiga ishora bor.

“Tibyon” sohibi istibto‘ bir nimaning xoh madh, xoh zam bo‘sin, o‘zga bir vasfni keltirib chiqargan vasfdir.

Istibto‘ lug‘atda izdoshlikni talab qilishdir.

Idmoj. Bir ma’no uchun zikr etilgan kalomga o‘zga bir ma’noni, xoh bu ikki ma’no madh bo‘lsin kiritmoqdan iboratdir.

Bask-i sar bardoramu molam bo bolin to sahar,
Dar shab-i hajr-i tu go‘yo az ajal doram hazar.

Hijroning tunida go‘yo ajaldan hazar qilgandek sahargacha tinimsiz boshimni ko‘taramanu yastiqqa ishqalayman.

Mahbub hijron tunidagi uyqusizlik izhori aytilgan bu so‘zga o‘zga bir ma’no kiritilib, va u hijron alami tufayli yuz bergan ojizlikni halokatga yaqinlashmoqlikning izhoridir.

Yana bir turi so‘zlaguvchi badiiy go‘zalliklardan bir nav’ini maqsad qilib, uning ostida boshqa ma’noni maqsad qiladi.

Giryam az hajr-i tu jono ro‘z-i shab,
Rahm kun oxir so‘y-i xesham talab!

Ey jon, sening hajringda kunu tun yig‘layman, rahm qil, axir meni o‘z yoningga chaqir!

Lugatda bu soʻz bir narsani kiyimga oʻramoq degan maʼnoni anglatadi.

Taʼliq. Soʻzlaguvchi nutq turlaridan bir turni toʻliq bir maʼnoni ifoda qiladi, Undan soʻng xoh birinchi navʼ boʻlsin hojati yoʻqdir.

Shayx betaqrib doim vasf-i may az had barad,
Mekunad izhor-i shurbu gar biguiy, bad barad.

Shayx doim munosabatsiz may vasfini haddin oshiradi, ichmaklikni oʻzi izhor qiladiyu, sen gapirsang, yomon qiladi.

Bu baytda hajvdan toʻliq bir maʼno ifodalanadi.u munosabatsiz may vasfini qilmoqlikdir. Bu manoda oʻzga bir maʼnoga ishora bordir. Oʻzi ichishni manʼ qilib oʻzga ichish haqida gapirsa uni qoralaydi.

Soʻzlaguvchi shart maʼnolik boʻlakka oʻzga bir aqilli bir fikrni kiritsaunga munosib fikrni, haddan ortiqlikni koʻrsatguvchi taʼliqni kiritadi:

Munkaratro az baxshish-i bahad nakunam,
Misli xud modih-i tu nestam az xuddomat.

Agar behad ehso qilishdan seni qaytarmasam, xodimlaring orasida oʻzimdek sening madh etguvching emasman.

Bu taʼliqda mamduhning modihga ehsoning haddan ortiqligiga ishora bordir.

Hazlun murodu bihil jidd. Hazl yoʻli bilan bir gap soʻraladi, ammo maqsad jiddiy boʻladi.

May base noʻshand ahl-i Isfahon gufto kase,
Guftamash on haste qay ham mexorand eshon base.

Bir kishi Isfahon ahli mayni koʻp ichadi dedi. Men unga bu bor, ammo ular qusugʻni ham koʻp yeydi dedim.

Ikkinchi misrada hazl bor, lekin haqiqatda Isfahon ahli asal ko‘p istemol qilgan.

Hasan Basriy rahmatullohu alayhining keltirgan bir rivoyatda bir kampir payg‘ambarimiz s.a.v. ning oldilariga keladida men jannatga kiranmanmi deb so‘raydi. Payg‘ambarimiz yo‘q kampirlar jannatga kirmaydi deydi kampir xafa bo‘lib qaytadi shunda payg‘ambarimiz uni qaytaringlar men unga jannatgakampirlik holatida kirmaysiz demoqchi edim deydi. Bundan bilishimiz mumkinki hazil ostida haqiqat bor edi, ya‘ni hazil orqali haqiqat yuzaga chiqayapti.

Tajahulul –ul-orif. Shoir bilib turib, lekin uni aqilli gaplar bilan bilmaslikka oladi. “Miftoh”da bu san‘atni **suqu ma’lum masoqa g‘ayrih** deb nom bergan. Ya‘ni ma’lum so‘zni noma’lum o‘rnida ishlatmoqlikdir.

Tajohul asosida ko‘plab ibratli gaplar kirib kelgan:

Maro, yo rab, digar shud hol yo ro‘z-i visolast in,
Ba hol-i xud nayam bore, namedonam chi hiyolast in?

Savode menamoyad chun mah-i nav pesh-i chashm-i man
Namedonam xam-i abro‘y-i jonon yo xiyolast in?

Raqibo, hol-i moro nest alan dar tu ta’sire?
Tu sangiy yo kuluxiy, zonkiaz inson muholast in.

Chiro ey mehr xudromekash-iy bolo? Namebiniy
Mahi ro‘yash namedoniy ki hangom-i zavolast in?

Chu did on mah maro barso‘xta rang az safar, gufto,
Atoiyro namemonad Muborak yo hulolast in?

Yo rab, mening holim o‘zgardi yo visol kunimi bu

*Hech o‘zimda emasman bilolmayman ne holdir bu?
Ko‘z o‘ngimda yangi oydek bir qora ko‘rinur,
Bilmayman jonon qoshini egmasi yo hayolmi bu?
E raqib, bizning holimiznng senga hech ta’siri yoq,
Toshmisan yo kesakmisan? Inson bunday bo‘lishi mumkinmas.
Ey mehr, (quyosh) nega o‘zingni yuqori olasan?
Uning yuz oyini ko‘rmayapsanmi? Bu zavoling ekanligini bilmayapsanmi?
Ul oy meni tong qizilligidan kuygan rangda ko‘rganda dedi,
Atoiyga oxshamaydi, Muborak yo Hilol bu.*

Tajohul birinchi hayrat izhori uchundir, ikkinchi baytda madh mubolag‘asi uchundir, uchinchi baytda zam mubolag‘asi uchundir, to‘rtinchi baytda tanbih uchundir, beshinchi hazl uchundir.

So‘zlovchi mavzuni o‘zi biladi, lekin so‘raydi: gapning borishidan anglashilib turgan mazmundab go‘yo bilmagandek³²

Talmeh. Gapda mashhur qissa yo nodir she’r yoki mashhur maqolga ishora etadi.

Mashhur qissaga ishora:

Nuri chashmam, be gul-i ro‘yat ba bo‘ston hol-i man,
Gashta hamchun holat-i Yoqub dar baytul hazan.

Bu baytda Yusuf qissasiga ishora bor.

*Ey ko‘zim nuri, yuzing gulisizbo‘stonda holim yoqubning g‘am uyidagi
holatiga o‘xshab qoldi.*

Mashhur maqolga ishora: yaxshilikka yomonlik maqoli.

Ashkro dar diyda parvardam base, oxir maro,

³² So‘z san’ati so‘zlugi. Yoqubjon I (bu havola “Aruzu humoyun “dan.105),64

Kard rusvo-yi jahone, dod nekiyro jazo.

Yoshni ko‘zimda ko‘p parvarish qildi oxri meni dunyoga rasvo qildi bir yaxshiga jazo berdi

Talmehni ba‘zisi **lug‘uzga** o‘xshaydi undan qasd qilingan ochiq oydin bo‘lmasdan, balki ma’noga ishora qiladi. Samarqandlik olimlardin biri bir Xurosonlik yigitga qarab eshak baqirmasa, minish uchun juda xo‘p hayvonda desa, ha ammo muz ustidan o‘tish uchun ojizlik qiladi deydi.

Talmeh lug‘atda bir nimaga nazar solmoq degan ma’noni anglatadi san’atda she’r va boshqa narsalarga ishora qilmoqlini bildiradi.

Irsoli masal mashhur qavlg‘a ko‘ra bir baytda masal kiritishga nisbatan ishlatiladi.

Bu ikki usul bilan yasaladi: birinchisi baytga masalni o‘zgartirmasdan kiritadi, ya’ni qanday bo‘lsa o‘shanday:

Payvasta firistiy ba man, ey sho‘x, tu dushnom,
Xud lab bigusho, chand dehi bo‘lsa ba payg‘om?

Ey sho‘x, menga doim so‘kib noma yuborasan, o‘zing labingni och qachongacha xat orqali o‘pasan

Ikkinchi yo‘li shuki, masalga o‘zgarish yuz beradi.

Sufiy nakard qavl-i mani rind istimo‘,
Gufto kajast suffo, nadonist chun simo‘.

So‘fiy men rindning so‘ziga quloq solmadim, si‘moni, ya’ni kuy eshitishni bilmagach supa n dedi. Ya’ni turib ketdi. Sofiylarni kuy eshitishdan tiyiladiganlari ham bor.

So‘fiy eshitishni bilmadi supa qiyshiq dedi qo‘ydi.

Irsoli masal gapda yoki she'rdagi maqol, matal yoki hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda tamsil yo'li bilan ishlatish san'atidir.³³

Irsol lug'atda yuborishdir. Bir jamoa orasida mashhur bo'lgan va u jamoa o'z gaplarida turli ishlarga o'xshatish va misol tarzida ko'p eslagan doston va hikoyalarini masal deydilar.

Aksar baytga masal keltirish, mahbub yo mamduh yoki o'zga kishiga yuborish uchun bo'ladi. Shuning uchun bu san'atni irsolul masal deb ataydilar.

Kalomi jomi'. O'git hikmat va zamonada yashovchi xalqning shikoyat va arz nolalari bilan zeb berilgan bo'ladi. O'git bilan ziynat berilgan kalom:

Chun pir shudiy, fikr-i ma'od-i xud kun,
Bigzar zi jahon, tark-i murod-i xud kun.
Dori safar-i sa'b bag'oyat nazdik
G'ofil manishinu fikr-i zod-i xud kun

*Qariganda qaytib ketadigan yeringni o'yla, dunyodan kech tarki dunyo ayla!
Og'ir safaring juda yaqin g'ofil o'tirma yo'l hozirligini ko'r.*

Hikmat bilan bezalgan kalom:

Gar izzat-u qadr xohiy, ey dil, qadare,
Az kasrat-i ixtilot mekun hazare!
Doniy ki, chiro aziz shu durri yatim,
Zon ro'ki nagasht muxtalit bo digare.

*Ey dil agar ozgina izzat qadr istasang, unga munga aralashishdan tiyil !
bilasanmi, nima uchun durri yatim(yolg'iz marvarid) aziz bo'ldi chunki
boshqalarga aralashmaydi.*

Zamon shikoyati bilan bezalgan kalom:

³³ Y Is'hoqov "so'z san'ati so'zligi" T b.20

Hargiz nabuvad dame huzuru tarabam,
Har lahza shavad ziyoda ranju ta'abam.
Har dam alame digar rasad be sababam,
Alqissa man az toli'-i xud dar ajabam.

Hech qachon bir nafas huzuri shodligim bo'lmagay, har lahza ranju mehnatim ko'paygay, har onda be sabab bir alam yetgay, xullas men o'z toleimdan hayratdaman.

Mazhabi kalomiy. So'zda o'z matlubining isboti uchun kalom ilmi, ahli uslub bilan dalil keltirishdan iboratdir. U dalil haqiqiy bo'lishi kerak etiboriy emas , yani so'zlaguvchi e'tiqod bilan haqiqatda dalil deb ishonadi, dalil emas deb o'ylamaydi.

Va uni latiflik bilan dalil qiladi:

On bodiya, ki manzil-i jononast,
Nazdi dil-i man base beh az bo'stonast.
Zero ki buvad murod-i jonam onjo ,
Har jo, ki buvad murod, behtar onast.

Jonon manzili bo'lgan u dasht mening ko'nglimda bo'stondan ko'p yaxshiroqdir. Chunki jonimning murodi u yerdadir murod qaerda bo'lsa o'sha yer yaxshiroqdir.

Faraziy bo'lishi mumkin:

Dono, ki asir-i suhbat-i nodonast,
Holash batarast az on, ki dar zindonast
Zerok-i buvad azob-i tan az zindon,
Vaz suhbat-i nojins azob-i jonast.

Nodon suhbatida tutqin bo'lgan dononing ahvoli zindondagi kishinikidan yomonroqdir. Chunki zindonda tan azoblansa, nojins suhbatini jon azobi jon azobidir.

Mazhabikalomiy ko'pincha bir bayt doirasida qo'llaniladi. Dalil keltirish so'z va ko'makchilar (nedinki, shuningdek, chunkim, ne tong, g'arib emas, ajab ermas) yordamida qo'llaniladi.³⁴

Azhobi kalomni zikr qilgan ya'ni uni birinchi topib nom qo'ygan shaxs Johiz³⁵ avomi nas uni Jo'ji derlar qurimsolikda doston bo'lgan, zomonasining yetuk olimlaridan balog'atu fasohatlisi bo'lgan.

Husni ta'lil. Bir narsaning sifatini izhor qiladi va o'sha sifatni isbot qilish uchun o'shaning o'ziga to'g'ri keladigan sababni keltiradi. Haqiqatda u sabab bo'lmagay.

Avvalgisi sifat o'sha ko'rinib turgan narsada rosdan bo'ladi lekin uni ko'rinib turish sababi bo'lmaydi:

Xatti mushikine navishta bar guxash kulk-i qazo,
To buvad az bahr-i daf'-i chashmi bad xirzu duo.

Baytning birinchi misrasida mazkur sifat berilgan, ikkinchida shu sifatning badiiy hususiyati berilgan.

Qazo qalami uning yuziga mushkin bir xat yozmish, yomon ko'zni daf qilish uchun, qaytarig'u duo bo'lsin uchun.

Ikkinchisi voqe' sababdan boshqa korinib turgan sabab bo'ladi.

Zon kasham pesh-i tu har dam oh' ey orom-i jon,
To kunam az dil-i birun mutlaq havo-i digaron.

³⁴ Y Is'hoqov "so'z san'ati so'zligi -b. 32

³⁵ Johiz Basrada 775 yil tugilib, 868 yil osha yerda vafot etgan

*Ey oromi jon, sening qoshingda har dam oh tortishimning sababi shuki,
ko'ngildan o'zgalarning havosini(ishtiyoqini) butunlay chiqarib tashlamoqchiman.*

Uchinchidan o'sha narsaning sifati haqiqatda bo'lmaydi lekin odatga ko'ra bo'lishi mumkin:

Azon shud rom ba man, ey Atoiy, ohu-yi vahshiy,
Ki bo'y-i mehr-i on vahsh-iy g'izol ham³⁶ shanid az man.

*Ey atoiy, u vahshiy ohu menga shu sababdan rom bo'ldiki, hatto vahshiy
hayvon ham mendan mehr hidini sezdi.*

To'rtinchidan o'sha narsaning sifati haqiqatda bo'lmaydi, odatda ham bo'lishi mumkin emasdir.

Xayol-i on but-i xunrez az chashmam nashud berun,
Azon dar xob ham rezad zi chashmam qatrahoyi xun.

*Ul qon to'kar butning tasviri ko'zimdan chiqib ketmadi, shu sababdan uyquda
ham ko'zim qon tomchilarini sochadi.*

Alloma bu san'atni ta'lil deb ataydi. Uni haqiqatdan yiroq bir narsani isbot qilishga xoslaydi. Shunday o'xshatish qiladiki koshki eshitgan uni haqiqat deb o'ylasin.

Tafri'. "Izoh" sohibi tafri' shunday narsaki, amalning mutaalliqi haqida bir hukm iqrar qiladi, undan so'ng uni boshqa mutaalliqqa ham iqrar qiladi.

Yoft zi adlat umir-i mulk nizom,
Nizom yoft zi adlat umir-i shar' tamom.

³⁶ Qo'lyozmada: u ham. Bu holda ma'no ham vazn ham buziladi.

Adlingdan mamlakat ishlari tartibga tushdi, butun shariy ishlar adlingdantartibga tushdi.

Atoulloh Husayniyning ma'naviy san'atlari Sakkokiyning ma'naviy san'atlari tarkibidan farq qiladi. Umuman arab balog'atida san'atning bu turiga faqat keng qo'llaniladigan o'ndan ortiqroq turlari kiritilgan bo'lsa, Atoulloh Husayniy ularni ikki guruhga bo'lib, ellikdan ortiq turini keltiradi. Arab balog'atida ayrim san'atlarning turlari hisoblangan san'atlar "Badoi'u-s-sanoye"da alohida tur sifatida berilgan.

2.3. Lafziy-ma'naviy san'atlar. Atoulloh Husayniy bu turdagi san'atlar haqida shunday deydi: "so'zda alarning yig'indisi husng'a bois bo'lur, garchi husndorliq bu ikkovining birida ikkinchisig'a nisbatan ko'prak bo'lsa ham". (225)

Mutobaqani tiboq, tatbiq, tazod va takofu ham derlar. Arab fusahosi qoshida kalomda ma'molar orasinda taqobili tanofiy³⁷ bo'lgan ikki lafsni jam' qilishdan iboratdir. Ya'ni debdilarki taqobul besh turdan iboratdirv va ularning to'rt turi kinoyada paydo bo'ldi.beshinchi turi taqobuli taonuddir³⁸

Haqiqiy taqobul bir zamoni bir makonda bir jihatdan birga bo'lmoqlikni iloji yo'qligidir. Qit'a:

Hast dar shahr xo'bro' pisare,
Ki dilam shud asir-i yak nazarash.
Padare dorad-u bago'yat zish
Ki mabinod kas ba rah guzarash.

Shab nodidan-i pisar nakushad,
Bekushad ro'z didan-i padarash.

*Shaharda bir go'zal o'g'lon borkim, ko'nglim uning bir qarashiga asir bo'ldi.
Uning juda yomon bir otasi borkim, hech kim o'z yo'lida uni uchratmasin. Tunda*

³⁷ Taqobul –bir - biriga qarshi turish. Tanofiy –bir-birini yo'q qilish

³⁸ Bir-biriga bo'ysunmoq

o'g'lonni ko'rmaslik o'ldirmaydi, lekin kunduzi otasini ko'rish o'ldiradi. Bu qit'ada taqobuli tazod –“tunda-kundizi” taqobuli tazoyuf -o'g'lon ota), taqobuli adamu malaka ko'rmak ko'rmaslik taqobuli ijobi salb o'ldirmak o'ldirmaslik

Tadbij. “talxis” sohibi u mutobaqa kabidir lekin uni ba'zilar tadbij deydilar. Tadbij turli ma'nolar oxirida ishlatiladi, xoh madh bo'lsin, xoh undan boshqa kinoya yo tavriya yani iyhom ko'zda tutilir.

Ahbob-i sodiq-i tu chu subhand ruxsafed

A'do-yi kozib-i tu chu shomand ro'siyoh.

Sening chin do'stlaringning do'stlari tongdek oqdir, yolg'nchi dushmanlaringni yuzlari esa tundek qoradir.

Bu baytda sodiq (chin) va kozib (yolg'onchi) so'zlarining ishlatilishiga sabab, subhi sodiq va subhi kozib birliklarining mavjudligidir.

Tadbiji tavriya quyida kelgan baytdagidek bir kishi ertalab Hirotdagi bir ulug' donishmandning uyiga bordim, kun botishiga oz qolganga qadar ochlikdan o'zga hech narsani ko'rmadim: safsata sotar va uni nozik fikr deb o'ylar edi.

Oxiri meni g'ash holda ko'rgach, hushomad qila boshladi va dedi” eshittimki sanatlarni yaxshi tushunarkansan qani bir aytchi va ulardan bir o'qi! Ozgina diqqat qilib ushbu baytni aytdim:

Dar firoq-i yor-i gandumgun dar in mehnatsaro

Chehra-yi man zard shud chun qoh, to kay in jafo.

Bu azobxonada bug'doyrang yorning firoqida somondrek sarg'aydim, bu jafo qachongacha davom etadi.

Qizig'I shundaki qaysi san'at borligini bilmadi va dedi: bu yerda qaysi san'at bor? Dedim tadbiji tavriya, u jihattanki, bug'doyrang yorning bu yerda fahmga yaqin ma'nosi bor va u rang juda oq bo'lmagan mahbubdir fahmdan yiroq ma'nosi ham bor u nondir va bu yerdagi qasd qilingani ham shudir.

Tadbiji kinoya va tadbiji tavriya bir misolda jam' bo'lishi mumkin:

Az siyahbaxt-iy kase ko‘ kasr-i rang-iy ol kard,
Xeshtanro oqibat zon sarkash-iy pomol kard.

Baxti qoralikdan ol rangini sindirgan kimsa oqibat o‘‘zini o‘jarlikdan oyoq osti qiladi.

Ol lafzida tavriya bor. Shu jihatdan ham uni fahmga, ya‘ni tushunish mumkin bo‘ladi. Bunda yana rasul avlodi degan ma‘no ham kuzatish mumkin.

Bilishimiz kerakki, tadbiji kinoyada jami ranglarda kinoya bo‘lishi shart qilib olinmagan. Tadbij lug‘atda bezamoq degan ma‘noni anglatadi.

Muqobala. “miftoh” sohibi bu shunday narsaki: ikki yoki undan ortiq muvofiq va ularga zid, ya‘ni muqobil narsalarni zikrini jam‘ qilasan. Agar u narsalar orasida bir nimani shart qilsang, ya‘ni ifoda qilsang, ularning ziddini orasida u narsani ziddini shart qilasan. Bu yerdagi muvofiqlikdan maqsad shuki, u narsalar ziddiga muqobil bo‘lmaydi, xoh ularning orasida munosabat bo‘lsin, xoh bo‘lmasin.

Shartsiz muqobala:

Vasli yoru furqat-i ag‘yor justam az xudo,
Hajri yori suhbat-i ag‘yor pesh omad maro.

Xudodan yor vasliyu ag‘yor furqatini tiladim lekin yor hajriyu ag‘yor suhbatini nasb bo‘ldi.

Shart qilingan muqobala :

Zi qahr-i tu a‘do hama dar g‘amand,
Zi lutfat hama do‘ston xurramand.

Sening qahringdan hamma dushman g‘amdadir, lutfingdan hamma do‘stlar xurramdir.

Bu yerda qahr bilan lutf va do'st bilan dushman bir-biriga ziddir.

Muroatun nazir. Uni tanosub, taviq, iytilof va talfiq ham derlar. U shundayki, kalomda unga munosib hodisa va shularni jam' qilurlar (ammo tazod bilan emas, chunki tazod, ya'ni taqobul munosabatning bir navidir), ushbu baytda aytilgan sartarosh yigitga aytilgan baytdagidek:

Ba joyi mo'y saram gar biyafkaniy az tan,
Gumon, mabar, ki bitobam zi tig'-i tu gardan.

Man az miyon-i tu chun sang bar nadoram dil,
Ba siyna har dam agar tig' boyadam xo'rdan.

Shudam chu kisa zi dasti tu poymol-i kason,
Digar ziyoda az inam ba dastu po mafikan.

Xudoyro, chu rasiy bar saram tu tig' ba dast,
Ki dasti xesh nadory darig' az sar-i man.

Nisor soz Atoiy zi chashmu ruh zaru sim,
Biraz chu dast dihad on nigor-i simbadan.

Soch o'rniga tanamdan boshimni olib tashlasang shubha qilma, sening tig'ingdan bo'yin tovlamayman. Men sening belingdan qayroqday ko'ngil uzolmayman, garchi har damda ko'ksimdan ti'g' yeyish to'g'ri kelsa ham. Sening yuzingdan kishilarga kisa kabi poymol boldim, bundan ortiq meni qo'lu oyoqqa tashlama (kisa –hammomdagi xadimchining badandan kirni chiqaradigan qo'iqopi: “qo'lu oyoqqa tashlash” xadim amallaridan). Xudo haqi, qo'lingda tig' bilan tepamga kelsang kelsang, mening boshimdan qo'lingdan ayama. Atoiy ko'zu yuzingdan oltinu kumush soch, agar u kumush badan nigor qo'lini bersa (imkoni bo'sa) bo'ya (ko'z qoni bilan).

Muroat lugʻatda rioya qilmoq maʼnosini beradi.

Tafvif. Alloma uni lafziy sanʼatlardan deydi: tafvif shunday narsaki u miqdoran bir-biriga teng yoki yaqin boʻlgan jumlalarda mos maʼnolar beriladi. U ikki tur:

Birinchisi jumlar boʻlak boʻlak boʻlib, yaʼni oʻqigan vaqtda ajratib olinadi³⁹, quyidagi ikkinchi baytidagidek.

Chi holast in, ki akdam nest holiy
Man-i bechoraro dar ishq-i on moh

Sar az dadu tan az ranju ruh az ashk
Dil az soʻzu lab az zoriy, dam az oh.

Bu qanday holki, ul oyning ishqida men bechoraning boshiga darddan, taniga ranjdan, yuziga yosgdan, kongliga yonishdan, labiga zorlanishdan, nafasiga ohdan boshqa bir dam yoʻq.

Ikkinchi turi jumlar qorishib ketmagan, boʻlak boʻlak boʻlmagan boʻladi:

Xatash rayhonu chashmash nargisu zulf
Buvad sunbul ruhash gul dar sahargoh.

Xati rayhon, koʻzi nargis, zulfi sunbul erur yuzi sahar vaqtidagi gul.

Maʼlumki, oldingi bayt shundayki, jumlar miqdori teng, keyingi baytda esa jumlar miqdori bir-biriga yaqin.

“Tibyon” muallifi tafvif ni alohida sanʼat qilib olishda alloma bilan bir fikrda lekin, taʼrifda boshqa fikrda uning aytishicha: bir-biriga mos maʼnolar miqdorda teng jumlalarda keltirilur.lekin bu fikr haqiqatdan uzoq.

³⁹ Qolyozmada shu joyida kitob xotima qismidagi tekst kirib qolgan tarjimada oʻz oʻrnida olindi.

Bunda yana shuni takidlab o'tish lozimki, baytlar mutlaqan bir-biriga qaram bo'maydi, chunki hamma sharitalar (sintaktik aloqa) oldingi bayt keyingi bayt ma'nosiga bog'liq bo'ladi:

To bisturad ba dast-i sabo doya-yi bahor
Gard az jabin-i lolavu ruhsor-i arg'uvon,

Gulzori davlat-i tu, ki dorad nasim-i xuld
Osuda bod to abad az ofat-i hazon

bahor enagasi sabo qo'li bilan lola manglayidan va arg'ivon yuzidan to'zonni tozalab turguncha qadar jannat nasimiga ega bo'lgandavlatning gulzori hazon ofatidan doim salomat bo'lsin!

Tafvifning manosi oq yo'lli kiyim to'qimoq. Ikkinchi ma'no she'rni o'rtasi oxiri e'tibori bilan yo'l -yo'l kiyimga o'xshatmoqdir.

Ta'dil. uni siyoqatul a'dod ham derlar. Arab fusahosi va ajam shuarosi nazdida sodda otlarni bir tartib va bir yo'lga keltirishdir:

Nadorad o' sar-i man garchi garchi sarf-i o' kardam
Saru zaru dilu din, aqlu donishu jon ham.

Uning men bilan ishi yo'q, garchi men unga boshimni, oltinni, dilu dinimni, aqlu ilmimni va jonimni ham sarf qilgan bo'lsam.

Agar bu san'atga tajnis yo izdivoj yo tazod yoki o'zga bir san'at qo'shiladigan bo'lsa, kamolining jamoli ravnaq topar:

Durdu dardu nozu sozu mehru kin
Har chi oyad, xush buvad zon nozanin.

Durdu dardmi, nozu sozmi, mehri o'chmi bari bir u nozanindan nimaiki kelsa xushdir.

Birinchi misrada ta'diddan tashqari tajnis (dard -durd), izdivoj (noz -soz) va tazod (durd -dard; noz -soz; mehr -kun) bor.

Ta'dilga bir-birini vasf qilishga doir she'rlar ham kiradi:

Namud az xattu ruhsor-i zulfi xud jonon

Yake bahoru do'vvo'm lolayu seyum rayhon.

Bahoru lolavu rayhoni u fuzud maro

Yake sirishk do'vvo'm nolavu seyum afgon.

Jonon o'zining xatu yuzi zulfi bilan biri bahorni, ikkinchisi lolani, uchinchisi rayhonni ko'rsatdi. Uning bahori lolayu rayhoni menda biri yoshimni, ikkinchisi nolani, uchinchisi afgonni ortirdi.

Agar she'rning oxirigacha, ba'zi shoirlar qilganidek, bu uslubni rioya qilsalar so'zni hususiyatini ortishiga sabab bo'ladi.

Ajam shuarosidan ba'zilari, uni siyoqatul a'dod turidan deb bilganlar.

Ta'dil lug'atda to'g'rilamoq degan ma'noni beradi. Sodda otlarni bir-biriga to'g'irlaydi.

Siyoqat surmoq degan ma'noni beradi. Shoir sodda otlarni bir nechasini zikr qilib, ularni bir yo'lga suradi.

Demak, arab balog'atida tasnifida bunday nom bilan ataluvchi tur yo'q. Atoulloh husayniy bu turga kritgan san'atlar arab balog'atida ma'naviy san'atlar qatoriga kiradi.

2.4. Ma'noga ta'sir qiluvchi ayblar. Mumtoz adabiyotda juda ko'p badiiy san'atlar qo'llanilgan. Bular asarga ham shakl jihatdan, ham ma'no jihatdan husn bag'ishlagan. Lekin ularni istefoda etishda meyorga rioya etish zarur bo'lgan. Agar meyordan kam yoki ortiq bo'lsa yoki san'atning talabiga nomuvofiq bo'lsa, san'atda ayblar, ya'ni nuqsonlar paydo bo'ladi. Bular haqida balog'at olimlari

aytib o'tganlar. Shulardan Atoulloh Husayniyning ma'noga tasir qiluvchi ayblar xususidagi fikrlarini ko'rib chiqamiz.

Bularning eng mashhuri o'ntadir . Tanoqus, imtino`, muxolifi urf, nisbatush shay` ila g'oyri ma huva lahu, qalbul ma'no, takalluful qofiya, nasx, masx, salx. Biz bularning ayrimlari haqida fikr yuritamiz.

Tanoqus buni mutanoqis deb ham ataydilar. Bu so'z arab tilidan olingan bo'lib *darajama-daraja kamaymoq, qisqarmoq, ozaymoq* degan ma'nolarni anglatadi. San'atdagi ma'nosi ikki so'z orasidagi nomuvofiqlikdir. Qadimgilardan biri shunday degan:

Hijron-i tu bo marg barobar kunam, zeroki,
Az marg battar boshad hijron-i tu, doniy.

Tarjimasi:

(sening hijroningni o'lim bilan teng qilaman, chunki hijroning o'limdan battardir)

Birinchi misrada hijronni o'lim bilan barobar qilibdi lekin , ikkinchi misrani birinchisiga dalil qilib, hijronni o'limdan battar deydi

Imtino' arab tilidan kirgan bo'lib *to'xtatilgan bo'lmoq, man' qilingan bo'lmoq, mustahkamlab olmoq, imkoniyatsiz bo'lmoq, voz kechmoq qarshilik qilmoq* ma'nolari bor. U shunday san'atki madh, duo yoki o'zga narsada mubolag'a qiladi aql uni bo'lishligini qiyinlik bilan anglaydi. Shoirlardan biri shunday debdi:

Ba tir az chashm-i nobino sapeda pok bardorad,
Ki ne diyda biyozorad, na nobino xabar dorad.

tarjima:

(O'q bilan so'qir , ko'zdan uning o'qini shunday toza qilib oladiki, na ko'zni og'ritadi, na so'qir uni sezadi (o'q otishda mohir demoqchi)

Shoirlardan biri shunday deydi : mumtani' shunday bo'ladiki, mavjud emas lekin uni tasavvur qilsa bo'ladi. misol:

To abad bosh dovar-i davron.

Tarjima:

(butunlay davroni hakim bo'l)

Atoulloh husayniy bu haqda shunday deydi: agar maqsad haqiqiy ma'no bo'lsa u ayblar jumlasidan bo'lur, agar biror bir ishda to'liqlikdan kinoya bo'lsa, birinchi misoldagi o'q otmoq mohirlikda bo'lganidek ikkinchi misoldadagi uzoq umr davlatli bo'lmoqlik singari bo'ladi va ayb bo'lmaydi.

Qanday ham ayb bo'lishi mumkin , hamma tan olgan arab fusahosiyyu ajam shuaroosining ashorida bu juda kop keladi hamma tekshirgan, o'qigan bo'lsa, biladi kimki tekshirmagan bo'lsa, ayt tekshirsin. Agar zamona ahli takabbur o'jarlik yuzasidan kaminaning so'zini qabul qilmasa, aytgin qabul qilmasin hamki, mening boshqa insof ahliga aytadigan so'zim yo'qdir.

Shar'iy adab tark qilingan she'r ham mumtani'ga qo'shiladi. Anvariyy uni Allohning o'zi kechirsin, dedi(bayt):

Buzurugvore, ki kandar kamol-i qudrat-i xesh,
Na izi dastu chu izi buzurgu behamtost.

Tarjima:

(u shunday ulug'vorki, o'z kamoli qudratinda Xudo emas Xudoday ulug'u misilsizdir).

Va yana, Mu'izziy Tangri uning yomonliklarini kechirsin, debdi:

Chun havo sardiy pazirad, joy-i mo koshona beh,
Mushafi mo sog'aru mehrob-i mo mayxona beh.

Tarjima;

(havo soviganda, bizning joyimiz koshona bo'lgani yaxshi, qur'onimiz qadahu mehrobimiz mayxona bo'lgani yaxshi).

Va shundayki Xoqoniy, Tangri uni yorlaqasin , otasi Yusuf Aliy duradgor madhida shunday deydi:

Yusufi najjor kist? Nuhi duradgor ki bud?

Tozi hunar dam zanad bar dori do'kon-i o'.

Nuh na bas ilm dosht, gar padar-i man budiy,

Qantara basti, ba ilm bar sari to'foni o'

Tarjima:

(Yusuf duradgor kimu Nuh duradgor kim bo'lganki, uning dokonida hunardan og'iz ochilsa, Nuhning yetarli ilmi yo'q edi, agar mening otam bo'lganida, ilm bilan uning to'foniga to'g'on qurar edi.)

Albatta, tasavvuf ahliyu mano arbobining o'zga tili bordir. Zohiran qanchalik shariatga nomuvofiq bo'lsa ham, haqiqatning o'zidir va kishining ularga e'tiroz qiladigan holi ham yo'q. Ammo u ma'nodan mutlaqo bexabar safsaftachi shoirlar jamoati u jamoatga taqlid qilib shariatga xilof gaplarni aytadilarki, hazrati xudovandgo (ya'ni Navoiy) ba'zida qilib turgandek ularning adabini berish kerak.

Atoulloh Husayniy o'z asarida ma'noga taqaluvchi o'nta aybni keltiradi. U badiiy san'atlardan xabardor bo'lgan kishi bu ayblarni ham bilishi shart ekanini e'tiborga olgan.

XULOSA

“Balog‘at” dastlab arab tilshunosligida paydo bo‘lib, IX asrda vujudga kelgan va XII asrda takomiliga yetgan ilmdir. Olimlar bu ilmning rivojlanishi, o‘zlashtirilishiga katta e‘tibor berganlar va unga bag‘ishlab asarlar yaratilgan.

Balog‘at dastlab arab tilshunosligida paydo bo‘lib, IX asrda vujudga kelgan va XII asrda takomiliga yetgan ilmdir.

Arab balog‘at ilmi nutq balog‘ati va notiq balog‘atiga ta‘rif berish bilan boshlanadi. Arab balog‘at ilmi bayon, ma‘oniy va badi’ ilmlaridan iborat hamda bayon ilmi – turli xil yo‘llar bilan bitta ma‘noni ifodalab berish, ma‘no ilmi – aytilgan so‘zning vaziyat, o‘ringa aynan mos tushishi, ilmi badi’ – aytilmoqchi bo‘lgan gapni bezash, go‘zal shaklga keltirish uchun qo‘llaniladi. Bayonda tashbih, istiora, kinoya va majoz, ularning turlari va tasnifi o‘rganiladi. Ma‘oniyga xabar va insho, zikr va hazf, itnob, musovot kabilar kiritilgan. Badi’ ilmi ikki guruhga bo‘linadi. Lafziy san‘atlarga saj’, tajnis, tarsi’ kabilar, ma‘naviy san‘atlarga tazod, mutobaqa, tashbeh talmeh kabi san‘atlar kiradi.

Balog‘at ilmi arab, fors, turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, forsiy va turkiyda ham balog‘at ilmiga doir asarlar yaratilishiga asos bo‘ldi. Bular qatoriga Atoulloh Husayniyning “Badoyi‘u-s-sanoyi’” asari ham kiradi.

Husayniy balog‘at ilmlarini arab balog‘atchilari kabi “ma‘oniy”, “bayon” va “badi’” emas, balki “lafziy go‘zalliklar”, “ma‘naviy go‘zalliklar”, “lafziyyu ma‘naviy go‘zalliklar” tarzida guruhlaydi. “Lafziy go‘zalliklar”, “ma‘naviy go‘zalliklar”, ya‘ni “al-muhassanotu-l-layziyya” va “al-muhassanotu-l-ma‘naviyya” atamallari arab balog‘atida faqat uning “badi’” qismidagi san‘atlarga nisbatan qo‘llanganini ta‘kidlash lozim.

Lafziy san‘atlarda so‘zlardagi tovushdoshlik muhim ahamiyatga ega. Atoulloh Husayniyning tasnifida bu san‘atlar Sakkokiyning tasnifiga mos keladi.

Atoulloh Husayniyning ma‘naviy san‘atlari Sakkokiyning ma‘naviy san‘atlari tarkibidan farq qiladi. Umuman arab balog‘atida san‘atning bu turiga faqat keng qo‘llaniladigan o‘ndan ortiqroq turlari kiritilgan bo‘lsa, Atoulloh Husayniy ularni

ikki guruhga bo'lib, ellikdan ortiq turini keltiradi. Arab balog'atida ayrim san'atlarning turlari hisoblangan san'atlar "Badoi'u-s-sanoye'"da alohida tur sifatida berilgan.

"Badoyi'u-s-sanoyi'"da ma'naviy san'atlarning lafziy-ma'naviy turi ham bor. Arab balog'ati tasnifida san'atlarning bu turi yo'q. Atoulloh Husayniy bu turga kiritgan san'atlar arab balog'atida ma'naviy san'atlar qatoriga kiradi.

Atoulloh Husayniy o'z asarida ma'noga taqaluvchi o'nta aybni keltiradi. U badiiy san'atlardan xabardor bo'lgan kishi bu ayblarni ham bilishi shart ekanini e'tiborga olgan.

"Badoyi'u-s-sanoyi'"da san'atlar ta'rifi va tasnifida arab balog'atidan farq qiluvchi jihatlarning borligi balog'at ilmiga uni o'zlashtirgan xalqlar tomonidan ijodiy yondashuv bo'lganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizning o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T., 1999.
2. Karimov I.A. O‘z.R. Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi. “XXI Asr” gazetasi. 2009. 10 dekabr.
3. Alibek Rustamov . Qofiya nima? Toshkent, Fan. 1976.
4. Alibek Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1979.
- 5.
6. Alisher Navoiy. Majolisun nafoyis. Ilmiy-tanqidiy tekst. Tayyorlovchi S.G‘aniyev. –T. 1961. –B. 141-142.
7. Atoulloh Husayniy. Badoyi‘u-s-sanoyi’. Forschadan Alibek Rustamov tarjimasini. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyotva san‘at n-ti. 1981. Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog‘a. A.Hayitmetov nashrga tayyorlagan. –T.: Xazina.1996.
8. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asarida poetika. (Aruz, qofiya, badiiyat ilmi istilohlari tarixiga oid). T.: ToshDShI. 2001.
9. Ishoqov Yo. So‘z san‘ati so‘zligi. –T.: Zarqaynar. 2006.
10. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at n-ti. 1979.
11. Rustamiy S. “Badoyi‘u-s-sanoyi’” asarining balog‘atda tutgan o‘rni Eron-afg‘on filologiyasining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –T.: TDSHI. 2009.
12. Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj‘. –T.: Fan. 1978.

13. Sotiboldiyev S. R. Foniyl gʻazallarining badiiyati /Amir Xusrav Dehlaviy gʻazallariga yozgan tatabbuʻlari asosida/. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2004.
14. Toʻychiev U. Oʻzbek adabiyotida badiiylik. –T.: Yangi asr avlodi. 2011.
15. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. T.: Sharq, 1999.
16. Hojiahmedov A. Sheʼr sanʼatlarini bilasizmi? T.: Sharq, 2001.
17. Sharifov Z. Arab tili. Balogʻat fanidan maʼruzalar matni. –T.: Shoakbar. 2002.
18. Sharq mumtoz poetikasi. Birinchi kitob. Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi prof. Boltaboyev H. –T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006.
19. أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم. مطبعة مصطفى النبابي الحلبي و أولاده بمصر. 1937.
20. حفن ناصرف. قواعد اللغة العربية و البلاغة. القاهرة.
21. Buxoro.lib.uz